qabilalar Farg‘ona vodiysida nisbatan ko‘pchilikni tashkil qilgan<sup>6</sup>. XIX-XX asr boshlarida mazkur qabilalar umumiy bir nom, ya’ni “turk” etnonimi bilan atalgan.

3) keyingi davrlarda Farg‘ona vodiysiga ko‘chib kelgan Dashti Qipchoq qabilalari vakillari qipchoq va qoraqalpoq urug‘lari, chunonchi, qirq, kenegas, chiyal (chayali), qatog‘on, saroy, o‘lmas, qurama, mang‘it, qozoq, urganji, elatan, o‘lmas, katta o‘lmas, qiyot, qurama, saroy, qatag‘on, olchin, qorayontoq, madyor (monjor), momoxon, nayman, qozoq, beshserka, beshsari, kenagas, to‘da, qirchin, uyg‘ur, kerayit (bugungi kunda Mingbuloq tumani Gurtepa qishlog‘ida Kerayit mahallasi mahallasi bor. Ularning qabristoni “G‘ariblar qabristoni” deb ataladi) va boshqalar o‘zbek xalqi, qolaversa, o‘zbek xalqining ajralmas qismi bo‘lgan JG‘N hududi aholisining shaklla-nishidagi uchinchi yirik etnik qatlam hisoblanadi.

Tilshunos olim Xudoyberdi Donyorov haqqoniy ta’kidlanganidek: “o‘zbek millatining son va tarkib jihatidan eng katta komponentini qipchoq – o‘zbeklar tashkil etadi. Bu komponentning asosiy qismi tarixiy xronologik nuqtai nazardan o‘zbek millatining tarkibiga eng keyin qo‘shilgan, lekin ayni vaqtda butun millat a’zolarining yagona va umumiy nomi bo‘lib qolgan “o‘zbek” nomini ham shu komponent olib kelgan”<sup>7</sup>.

Sirdaryoning o‘rta oqimida yashab turgan qoraqalpoqlarning katta bir guruhi XVIII asrda Farg‘ona vodiysiga ko‘chib o‘tganligi xususida ilmiy manbalarda qaydlar mavjud<sup>8</sup>. Ko‘chib o‘tgan qoraqalpoqlarning aksariyati vodiyning Sirdaryo va Qoradaryo qirg‘oqlaridagi hududlariga joylashgan va Andijondan to Qo‘qongacha bo‘lgan hududlarda o‘troqlasha borib, o‘zlarining qator qishloqlarini barpo etgan.

Tarixchi olim S.S.Gubaeva ham Farg‘ona vodiysida joylashgan bir necha qoraqalpoq qishloqlarini ko‘rsatib o‘tadi. Xususan, Andijon viloyatida: Darlomon, Nayman, Qipchoq, Sohovat, SHerqo‘rg‘on, Do‘ngsaroy, Xo‘ja-obod, Xavos, Bug‘azi (Bobog‘ozi); Namangan viloyatida: Gurteva, (Gurtepa), Bobog‘ozi, Beshkapa, CHordara, (CHordona), Qoraqalpoq; Farg‘ona viloyatida: Taqali, Qipchoq, Soybo‘yi, Qoraqalpoq va boshqalar.

---

<sup>6</sup> Шаниязов К. Ш. К этнической истории узбекского народа (Историко-этнографическое исследование на материалах кипчакского компонента). – Тошкент: Фан, 1974. – С. 109-114-116; Некоторые вопросы этнической динамики и этнических связей узбеков в XIV – XVII вв. // Материалы к этнической истории населения Средней Азии. – Т. 1986. – С. 83-93. Винников В.Р. Современное расселение народов и этнографических групп в Ферганской долине // СЭС. 1959. – Т. II. – С. 404-405; Губаева С.С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX начале XX вв. – Ташкент: Фан, 1983. – С. 71-74.

<sup>7</sup> Донёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.8-9; Абдиев М. Худойберди Донёров // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. – № 4. – Б. 115.

<sup>8</sup> Иногамов Ш.И. Этнический состав населения этнографическая Ферганской долины в границах Уз ССР. Автореф. дис. ...канд. истор. наук. – Ташкент, 1955. – С. 78. Толстова Л.С. Каракалпаки Ферганской долины. – Нукус: Каракалпакское государственное издательство, 1959. – С. 27-35-44; Абдуллаев У. Фарғона водийсида этносларо жараёнлар (XIX-XX аср бошлари). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 40-60.

Garchi, vodiy qoraqalpoqlari Xorazm vohasida yashovchi qoraqalpoqlar kabi murakkab urug‘-qabilaviy tuzilishga ega bo‘lmasalar-da, har holda tadqiqotchilar vodiy hududidagi qoraqalpoqlar ham bir necha urug‘lardan iborat ekanliklarini qayd etganlar. Xususan, Farg‘ona qoraqalpoqlarini maxsus o‘rgangan L.S.Tolstova vodiyda mang‘it, keneges, qipchoq, qo‘ng‘irot kabi qoraqalpoq urug‘lari yashaganliklari, ular o‘z o‘rnida bir qancha mayda qavmlarga bo‘linganliklarini ta’kidlaydi<sup>9</sup>. Masalan, olim ta’kidlagan, shuyit, xitoy-qipchoq, momoxon, bessari, uyruchi, nayman, keneges, urug‘larining vakillari hozirda ham JG‘N hududida istiqomat qilib kelmoqda. Ularning qishloqlari ham o‘z urug‘lari nomi bilan ataladi.

Tarixchi olim U. Abdullaev 1909 yilda nashr etilgan “Farg‘ona vilo-yati aholi joylari ro‘yxati”da ...chuit (shuyit), uyurchi, ...kenegez, nayman... kabi qoraqalpoq urug‘larining nomi bilan ataluvchi aholi manzilgohlari ko‘rsatib o‘tilganligini ta’kidlaydi<sup>10</sup>.

Til har bir etnosni boshqa bir etnosdan ajratib turuvchi muhim va asosiy belgidir. Etnos nazariyasiga ko‘ra ham til etnosni belgilab turuvchi asosiy belgilardan hisoblanadi. Ayni vaqtda til kishilarning asosiy aloqa vositasi sifatida ular o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosa-batlarni belgilovchi, ularni yuzaga chiqaruvchi hamda ana shu munosabatlar orqali rivojlanuvchi ijtimoiy tabiatga ega hodisadir.

Ma’lumki, etnos shakllanishi jarayonida har bir etnosga xos til taraqqiy etib boradi. Muayyan bir etnos boshqa etnos bilan munosabatga kirishar ekan, avvalo, ushbu munosabatlar natijasi ularning tilida o‘z ifodasini topadi.

Biz o‘rganayotgan janubi-g‘arbiy Namangan hududida ham qadimdan yashab kelgan turli etnoslarga mansub xalqlar haqidagi ma’lumotlardan dialektal arealning har bir guruh shoxobchalarida ana shu etnik guruhlarining til unsurlari, etnografik belgilari ko‘zga tashlanadi<sup>11</sup>.

Shuni takrorlashga to‘g‘ri keladiki, mazkur xalqlar, bir guruh sho‘ro tarixchilari ta’kidlaganlaridek, faqat eron tillarida so‘zlashuvchi xalqlardangina iborat bo‘lmay, ularning katta bir guruhi turkiy tilning turli lahjalarida

<sup>9</sup> Толстова Л.С. Каракалпаки Ферганской долины. – Нукус: Каракалпакское государственное издательство, 1959. – С. 27-35.

<sup>10</sup> Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX-XX аср бошлари). Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 67.

<sup>11</sup> Аскаров А.А. Некоторые вопросы истории становления узбекской государственности // ОН Узб., 1997. – №3. – С.66; Шониёзов К. Канг давлати ва канглилар. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.5; Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 92; Ишандадаев Д. Наманган атроф тожик ва ўзбек шеваларида сўз яшанинг айрим хусусиятлари (тожик ва ўзбек тиллари ўзаро таъсири масаласига доир). Фил. фанл. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1967. – Б. 19; Спришевский В.И. Чустское поселение (к истории Ферганы в эпоху бронзы). Автореф. дис. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 1963. – С.21.

gaplashganlar. Aniqroq qilib aytganda, bu hududlarda antik va ilk oʻrta asrlarda turkiy tilda soʻzlashuvchi xalqlar ham yashab, ular mintaqada kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy, jumladan, etno-lingvistik jarayonlarda faol ishtirok etganlar<sup>12</sup>.

Oʻrganilayotgan dialektal hudud – janubi-gʻarbiy Namangan arealida ham etnoslararo til munosabatlari qadim davrlardanoq boshlangan va bu jarayon asosi quyidagi ikki yoʻnalishda rivojlanib borgan: birinchi yoʻnalishda tillararo qorishuv (metizasiya holati) turkiy tilning turli lahjalarida soʻzlashuvchi urugʻ va qabilalar ichida yuz bergan boʻlsa, ikkin-chisida esa turkiy tilli xalqlar bilan turkiy boʻlmagan etnoslarning tillari oʻrtasida chatishuv (gibridizasiyalashuv holati) sodir boʻlgan.

Tarixdan ayonki, miloddan oldingi III asrda Sirdaryoning oʻrta oqimida Qangʻ (Qanxa) davlati tashkil topgan edi. Bu davlat tarixda Kanguy nomi bilan ham maʼlum.

Tadqiqotchilar<sup>13</sup> ushbu davlat aholisini etnik jihatdan bir xil boʻlmaganligi, davlat hududida eron tilli xalqlar (xususan, soʻgʻdiylar, assianlar, aslar) bilan birga turkiy tilda soʻzlashuvchi etnoslar ham yashaganliklarini aytib oʻtadilar. Yangi era arafasida ushbu davlat aholisi ikki tilda (eron va turkiy tillarda) soʻzlashganlar. Keyinroq ushbu hududga koʻplab turkiy tilli etnoslarning koʻchib kelishi natijasida, bu erda turkiy etnik qatlamning mavqei ortib borgan, oqibatda aholining turkiylashishi kuchaygan.

Turkiy va turkiy boʻlmagan etnoslar orasidagi til aloqalari ilk oʻrta asrlarda ham kengayib bordi. Bu davrda mintaqaning bir qator hududlarida aholi turkiy va soʻgʻd tillarida soʻzlagan. Chunonchi, Mahmud Qoshgʻariy XI asrda Sharqiy Turkistonning janubidagi shaharlarda shuningdek, Chu va Talas vodiysidagi aholi turk va soʻgʻd tillarida gaplashganliklari, aholi ikki tilli boʻlganlari haqida xabar beradi. Uning soʻzlariga koʻra X-XI asrlarda Sharqiy Turkistondagi Balasogʻun shahrida bir vaqtning oʻzida aholi ham turkcha, ham soʻgʻdcha soʻzlashganlar. Mahmud Qoshgʻariy oʻzining “Turkiy tillar devoni” asarida Balasogʻundagi soʻgʻdiylar haqida gapirib, “Buxoro va Samarqanddan koʻchib borgan soʻgʻdoqlar Bolasogʻunda joylashib qolgan va turkiylashib ketgan” deb yozgan edi<sup>14</sup>.

---

<sup>12</sup> Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX-XX аср бошлари). тарих фанл. докт. ...дисс. – Тошкент, 2006. – Б. 264-285.

<sup>13</sup> Гумилев. Л.Н. Қадимги турклар. – Тошкент: Фан, 2007; Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 678 б.; Шониёзов К. Канг давлати ва канглилар. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 178; Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. –Тошкент, Шарк. 2001. – Б. 114; Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX-XX аср бошлари). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б. 183-200.

<sup>14</sup> Қошғарий М. Девону луғат-ит турк. (Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов). – Тошкент, 1960-1963. – Б. 486.

Turli millatlarning birikuvidan tarkib tongan JG‘N aholisi uchun azaldan ikki tillilik xos bo‘lgan. XIX-XX asr boshlarida vodiy hududida o‘zbek-tojik, o‘zbek-uyg‘ur, o‘zbek-qirg‘iz va o‘zbek-qoraqalpoq ikki tillilik holatlari kuzatiladi. Natijada yuqoridagi ikki tillilik hodisasi va ularning tarqalish ko‘lami hududda turlicha bo‘lib, bu ijtimoiy hodisaning sodir bo‘lishi etnik muhit bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.



**3. КЕЙИНГИ ДАВРЛАРДА  
ФАРҒОНА ВОДИЙСИГА  
КЎЧИБ КЕЛГАН ДАШТИ  
ҚИПЧОҚ ҚАБИЛАЛАРИ  
ВАКИЛЛАРИ: ҚИПЧОҚ ВА  
ҚОРАҚАЛПОҚ УРУҒЛАРИ**

*ҚИРҚ, КЕНЕГАС, ЧИЯЛ (ЧАЯЛИ),  
ҚАТОҒОН, САРОЙ, ЎЛМАС, ҚУРАМА,  
МАНҒИТ, ҚОЗОҚ, УРҒАНЖИ, ЭЛА-  
ТАН, ЎЛМАС, КАТТА ЎЛМАС, ҚИЁТ,  
ҚУРАМА, САРОЙ, ҚАТАҒОН, ОЛЧИН,  
ҚОРАЁНТОҚ, МАДЁР (МОНЖОР),  
МОМОХОН, НАЙМАН, ҚОЗОҚ,  
БЕШСЕРКА, БЕШСАРИ, КЕНАГАС,  
ТЎДА, ҚИРЧИН, УЙҒУР, КЕРАЙИТ*

**АЙНИ ПАЙТДА МИНГБУЛОҚ  
ТУМАНИ БАЛАНД ГУРТЕПА  
ҚИШЛОҒИДА КЕРАЙИТ  
УРУҒЛАРИ МАҲАЛЛАСИ  
БОР. УЛАРНИНГ ҚАБРИС-  
ТОНИ “ҒАРИБЛАР ҚАБРИС-  
ТОНИ” ДЕБ АТАЛАДИ**

**БУЛАР ЎЗБЕК ХАЛҚИ, ҚО-  
ЛАВЕРСА, ШУ ХАЛҚИНИНГ  
АЖРАЛМАС ҚИСМИ БЎЛ-  
ГАН ЖҒН ҲУДУДИ АҲОЛИ-  
СИННИНГ ШАКЛЛАНИШИ-  
ДАГИ УЧ ЙИРИК ЭТНИК  
ҚАТЛАМДИР.**

**1. ЭТНИК КОМПОНЕНТЛАРИ  
УЗОҚ ЭТНОГЕНЕТИК АССИ-  
МИЛЯЦИЯ (ҚОРИШУВ)  
НАТИЖАСИДА ШАКЛЛАНГАН  
ЭРОН ТИЛЛИ ХАЛҚЛАР  
БИЛАН ТУРКИЙ ЭТНОСЛИ  
ШАҲАР ВА ҚИШЛОҚ  
АҲОЛИСИ**

*УЛАР ҚАДИМДАН ЎТРОҚ ЯШАБ,  
ДЕҲҚОНЧИЛИК, ҲУНАР-  
МАНДЧИЛИК ВА САВДО-СОТИҚ  
БИЛАН ШУҒУЛЛАНИБ КЕЛГАН.  
УРУҒ-ҚАБИЛАЛАРГА БЎЛИНМАГАН.  
РУС ТИЛИДАГИ АДАБИЁТЛАРДА  
АҲОЛИНИНГ БУ ҚАТЛАМИГА  
НИСБАТАН “СОРТ” АТАМАСИ ҚЎЛ-  
ЛАНГАН*

**“СОРТ” АТАМАСИ МАРКАЗИЙ  
ОСИЁ МИНТАҚАСИНИНГ БИР  
ҚАТОР ҲУДУДЛАРИДА, ХУСУСАН,  
ФАРҒОНА ВОДИЙСИДА,  
ТОШКЕНТ, ХОРЗАМ ВОҲАСИДА  
ЯШАГАН ЎТРОҚ АҲОЛИГА  
НИСБАТАН КЎЧМАНЧИ ВА ЯРИМ  
КЎЧМАНЧИ ХАЛҚЛАР  
ТОМОНИДАН БЕРИЛГАН НОМ**

**ҲОЗИРДА ҲАМ  
МАҲАЛЛИЙ ТИЛ ВАКИЛ-  
ЛАРИ БИР-БИРИНИ СОРТ  
ВА ҚОРОЛПОҚ (ҚОРА-  
ҚАЛПОҚ) ТАРЗИДА  
ФАРҚЛАЙДИ**

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. Reshetov V.V., SHOabdurahmonov SH. O'zbek dialektologiyasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1978.
2. To'ychiboev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
3. Enazarov T., Karimjonova V. va boshqalar. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.
4. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
5. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b
6. Aliev A. YU., Nazarov K. N. O'zbek tilining mahalliy shevalari bo'yicha material to'plovchilar uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: 1976.
7. Arealные isledovaniya v yazykoznanii. – L., 1983
8. Baskakov N. A. Zadachi sostavleniya tyurkskix arealnyx istoricheskix dialektologicheskix atlasov // Sovetskaya tyurkologiya. 1982. Вып. 3. S. 3-9.
9. Begaliev M. D. O'zbek tilining Qorabuloq shevasi leksikasi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2007.
10. Djuraev A.B. Teoreticheskie osnovy arealnogo issledovaniya uzbeko yazыchnogo massiva. – Toshkent: 1991.
11. Jo'raev B. O'zbek adabiy tili va dialektlari. – Toshkent: Fan, 1963.
12. Murodova N. O'zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2005.
13. Nafasov T. Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari. – Toshkent,: Muharrir, 2011.
14. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
15. Reshetov V.V. O'zbek dialektlarini monografik o'rganish // O'TA. 1960. 1-soni.
16. Reshetov V.V., SHOabdurahmonov SH. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1962.
17. Reshetov V.V. O dialektnoy osnove uzbekskogo literaturnogo yazыka // Вопросы yazykoznaniiya. – Moskva, 1955.
18. Reshetov V.V. O'zbek shevalarining klassifikasiyasi // O'TA, 1966.
19. Shoabduraxmonov Sh.Sh. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalk shevalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1962.
20. Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? – Toshkent: Fan, 1981.



21. Shoimova N. Qashqadaryo o‘zbek qipchoq shevalari leksikasi. – Qarshi: Nasaf, 2000.
22. O‘zbek dialektologiyasidan materiallar. 1-qism. – Toshkent: Fan, 1957.
23. O‘zbek dialektologiyasidan materiallar. 2-qism. – Toshkent: Fan, 1960.
24. O‘zbek shevalari leksikasi. – Toshkent: Fan, 1966.; 1991.

## **7-mavzu**

### **IZOGLOS VA UNING TARIFI, TASNIFI**

#### **Reja:**

1. Izoglos (dialektologik xaritada ma‘lum bir tilda so‘zlashuvchi hududlar chegarasi) haqida umumiy tushuncha.
2. Uning tasnifi talqini.
3. Madaniy va tarixiy maydon tushunchasi va uning taqsimlanish tamoyillari.

**Tayanch tushunchalar:** lingvistik hodisalarning muayyan kenglikda tarqalishi, tillararo (dialektlararo) munosabatlar, lingvistik geografiya metodlari, asosiy tamoyillar, til xususiyatlarining hududiy bo‘linishi, tavsif, izoglassalarni talqin qilish, dialektlar, tillar va areal jamoalar (til ittifoqlari) o‘rtasida o‘zaro ta’sir maydonlari (areallari).

Davrlar o‘tishi bilan ma‘lum bir tilda so‘zlashuvchi etnik guruhlar yashash joylarini o‘zgartirishi, yangi joyda o‘troqlashishi va, shu bilan birga, o‘z tillari bilan mahalliy tilga ta’sir etishi kuzatiladi. Demak, muayyan dialekt turli hududga tarqalishi, shu hududlarda mahalliy dialekt-larni siqib chiqarishi yoki ular bilan qorishib ayrim elementlarini saqlab qolishi mumkin. Bu jarayonlarni o‘rganish dialektologlar zimmasiga yukla-nadi. Shevalarni o‘rganish, ularning tarqalish ko‘lamini aniqlash geografik bilimlarsiz amalga oshishi mushkul.

Shunday ekan, tilshunoslik bilan geografiya o‘rtasida uzviy munosabat bo‘lishi tabiiy. Bunday munosabat, ayniqsa, muayyan lingvistik hodisalar-ning tarqalish hududlarini belgilashda lingvistik va dialektal atlaslar tuzishda yorqin namoyon bo‘ladi.

Tilshunoslik bilan geografiyaning ana shunday munosabatiga e’tibor qaratilishi natijasida lingvistik geografiya yoki lingvogeografiya va areal lingvistika fani paydo bo‘ldi.

Dunyo tilshunosligida areal tilshunoslik ko‘p mundarijali soha bo‘lib shakllandi. Chunki arealogiya italyan neolingvistlari (M.Bartoli, Dj. Bonfante, V.Pizani, V.M.Jirmunskiy, V.N.Golovin va b.), jahon lingvo-geograflari (K. de

Monbre, Jon Jileron, D.Mone, G.Venker, F. Vrede, K.YAberg, YA.Yud, P. Meer, V.M.Jirmunskiy, S.I.Bromley, D.I.Edelman, B.A.Serebrennikov, N.Z.Gadjieva, R.YA.Udler va b.) hamda tillar ittifoqi yo‘nalishi vakili bo‘lgan (M. Emeneau, V. Vinter, I. Balazs, M.J.Bartoli, Dj. Viddasi, YU.S.Maslov va b.) tilshunoslarning amalga oshirgan tadqiqot-larini o‘zida mujassamlashtirdi. Tadqiqotlar negizida areal lingvistik konsepsiyalarning tadrijiy taraqqiyotini analiz va sintezlash natijasida dialektlarni umumiy tilshunoslikning bir aspekti sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq ekanligi isbotlandi. Dialektlarni arealogik tamoyil-lar va lingvistik tadqiqot metodlari asosida o‘rganish muhim muammo sifatida qo‘yildi.

Jahon tilshunosligining arealogiya sohasi vakillari o‘z ilmiy qarashlarida millat tilini dialektologik manba – materiallarni ling-vistik geografiya, areal lingvistika tamoyillari asosida bir butun, yaxlit – umumiy tarzda o‘rganish ko‘proq samara berishini isbotladilar. Ularning ilmiy qarashlari, asarlari u yoki bu til hodisasining hududiy tarqalishini ko‘rsatuvchi lingvistik xaritaga tushirilgan belgilar – izoglassa\* tushuncha-sining mohiyatini ochib berdi.

XX asrning 50-60-yillardan boshlab turkiyshunoslar ham lingvistik geografiyaga, lingvistik xaritalar tuzish muammolariga diqqatini jalb etdilar. Bu muammoga bag‘ishlangan N.A.Baskakov<sup>15</sup>, M.M.Shiraliev<sup>16</sup>, N.Z.Gadjieva<sup>17</sup>, E.V.Sevortyan<sup>18</sup>, Sh.Shoabdurahmonov<sup>19</sup>, A.Shermatov<sup>20</sup>, N.B.Burganov<sup>21</sup> singari olimlarning asarlari maydonga keldi.

O‘zbek xalq shevalari rang-barang xususiyatlarni o‘zida ifoda etadi. Ularning xaritalardagi ko‘rinishi til o‘rganuvchilar uchun tilshunoslik va dialektologik qonuniyatlarni tushuntirishda juda qo‘l keladi. Lingvistik xaritalarda

---

\* Изогласса: *изофонема – фонетик белги, изоморфема – морфологик белги, изогласса – лексик белги.*

<sup>15</sup> Баскаков Н.А. Ареалы и маргинальные зоны в развит тюркских языков // Народы и языки Сибири: ареальные исследования. – М., 1978.

<sup>16</sup> Ширалиев М. М. Азэрбајчан диалектологіјасының асаслари. – Баку, 1981.

<sup>17</sup> Гаджиева Н.З. Проблемы тюрской ареальной лингвистики среднеазиатский ареал. – М.: Наука, 1975; Принципы ареального описания языков // Принципы описания языков мира. – М., 1976; Тюркоязычные ареалы Кавказа. – М., 1979; Проблемы ареальной лингвистики//Вопросы языкознания. –1984, –№2.–С.47-60.

<sup>18</sup> Севортян Э.В. Ассимиляция и диссимиляция согласных в южных тюркских языках, Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. I. Фонетика. – М., 1955.

<sup>19</sup> Шоабдурахмонов Ш. Қўкон шевасининг баъзи бир фонетик хусусиятлари // Ўзбек диалектологияси материаллари. – Тошкент: Фан, 1957; Тошкент шевасининг фонетик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – 1960. – № 6. – Б. 45-55; Ўзбек адабий тили ва халқ шевалари. – Тошкент: Фан, 1962; Етакчи ўзбек шаҳар шеваларининг классификацияси масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1965, – №1. – Б.33-38. Ўзбек тилининг диалектологик атласи // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1969, – №3. – Б. 33-38.

<sup>20</sup> Шерматов А. Қарши шевасининг баъзи фонетик хусусиятлари // Ученые записки ТГПИ. Вып. XII. – Ташкент, 1959; Каршинский говор узбекского языка. Автореф. дис. ...канд. фил. наук. – Ташкент, 1960; Из опыта картографирования узбекских говоров Низовья Кашкадари // VII региональная конференция по диалектологии языков. – Алма-Ата, 1973; Диалектное членение узбекского языка//Вопросы диалектологии тюркских языков.–Уфа, 1985; Узбекские народные говоры Кашкадаринской области. – Ташкент, 1978; Лингвистик география нима? – Тошкент, 1981; Шерматов А., Шаабдурахмонов Ш. Атлас узбекских народных говоров // Тюркское языкознание: материалы III Всесоюзной конференции. –Ташкент, 1985.

<sup>21</sup> Бурганов Н. Б. Термины животноводства в узбекских говорах Каракалпакии. Автореф. дис. ... канд. фил. наук. – Ташкент, 1972.

ko'rsatilgan dialektal xususiyatlar va ularning tarqalishi tilshunoslarga ayrim til hodisalarining tarixiy taraqqiyoti, o'zbek milliy tilining shakllanish jarayonlari, adabiy til takomili kabi talay masala-larni yanada chuqurroq va mukammalroq o'rganish imkonini beradi.

Lingvistik hodisalarning muayyan kenglikda tarqalishi va tillararo (dialektlararo) munosabatlarni lingvistik geografiya metodlari asosida o'rganuvchi, asosiy tamoyillari til xususiyatlarining hududiy bo'linishini tavsiflash va izoglassalarni talqin qilish, dialektlar, tillar va areal jamoalar (til ittifoqlari) o'rtasida o'zaro ta'sir maydonlarini (areal-larini) aniqlash bo'lgan areal lingvistika sohasida ham bugungi o'zbek tilshunosligida bajariladigan vazifalar talaygina.

O'zbek tilini areal nuqtai nazardan o'rganishda A.Jo'raev<sup>22</sup>, Q.Muhammadjonov<sup>23</sup> singari olimlar samarali mehnat qildilar. Ayniqsa, bu sohada o'zbek tilini areal o'rganilishining nazariy asoslarini batafsil yoritib bergan professor A.B.Jo'raev xizmatlari alohida e'tiborga loyiq.

Zahmatkash o'zbek tilshunosi, ona tilimiz fidoyisi, til ilmi targ'i-botchisi Abdulhamid Nurmonov o'zining "O'zbek dialektologiyasining shakllanishi va rivojlanishi" nomli maqolasida "o'zbek mahalliy shevalarini o'rganishda "Chig'atoy gurungi" olg'a surgan g'oya katta xizmat qildi. Bunga ko'ra "tilimizning adabiyliги arabiyliğida emas, o'zidadir, shuni tirguzmak", "tilimiz qoidalarini tatarcha yoxud usmonlicha emas, tilimizning o'zidan olmoq" kerak edi. Shuning uchun "xalq og'zida yurgan so'zlarni, xalq adabiyoti bo'lg'on ertaklar, maqollar yig'ib tekshirmak lozim" degan qarorga keladi. Natijada jonli xalq tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bel bog'lanadi" deb ta'kidlagan edi<sup>24</sup>. Olim o'zbek shevashunosligi taraqqiyoti uchun munosib ulush qo'shgan fan fidoyilari va ularning asarlari haqidagi fikrlari yakunida: "o'zbek dialektologiyasining keng front bo'ylab ravnaq topishi o'zbek tilini lingvistik xaritalashtirish imkoniyatini yaratdi. Shuningdek, lingvogeografik va areal tadqiqotlar olib borishga qulay sharoit tug'dirdi. A.Shermatovning lingvogeografiyaga, A.B.Jo'raevning areal lingvistikaga doir tadqiqotlarining dunyoga kelishi o'zbek til-shunosligining katta yutug'i" ekanligini ko'rsatib o'tgan edi<sup>25</sup>.

---

<sup>22</sup> Джурраев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991.

<sup>23</sup> Мухаммаджонов Қ. Ареальное исследование узбекских говоров южного Казахстана. Автореф. дисс. ...докт. фил. наук. – Ташкент, 1988; Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари. Тошкент: Фан, 1981.

<sup>24</sup> Нурмонов А. Танланган асарлар. – Тошкент: Akademnashr, 2-жилд, 2012. – Б. 425.

<sup>25</sup> Нурмонов А. Танланган асарлар. – Тошкент: Akademnashr, 2-жилд, 2012. – Б.426.

Darhaqiqat, A.B.Jo‘raevning samarali ilmiy izlanishlari o‘zbek areal lingvistikasi sohasida amalga oshirilgan yagona ish sifatida ahamiyatli ekanligini e‘tirof etish lozim.

Aslida, o‘zbek areal lingvistik tadqiqotlarining nazariy asoslari Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘ot-it turk”, Alisher Navoiyning “Muho-kamatul lug‘atayn” asarlari bilan birgalikda maydonga kelgan.

O‘zbek shevalarini areal lingvistik metodlari asosida o‘rganish professor A.K.Borovkovning Farg‘ona vodiysi shevalaridan materiallar to‘plashdan boshlangan. Lekin o‘sha vaqtlarda respublikada dialektologik ishlarni birlashtiruvchi yagona markazning yo‘qligi bu materiallarni ishlab chiqish va xaritalarga ko‘chirish imkonini bermadi. Oradan ma’lum vaqt o‘tgandan keyin, o‘zbek shevalari xususiyatlarini xaritalashtirish va areallarini belgilash ishi yana kun tartibiga qo‘yildi.

E.D.Polivanov, G‘.O.YUnusov, I.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov kabi tilshunoslar o‘zbek areal tilshunosligi sohasini ilmiy asarlari, asosli manba – materiallar bilan boyitib, uning rivojlanishiga, takomillashishiga munosib hissa qo‘shdilar.

O‘zbek dialektlari arealini xaritalashtirishda professor V.V.Reshetovning xizmatlarini alohida e‘tirof etish kerak. U Toshkent viloyatining Angren hududida dialektologik tadqiqotlar olib bordi va Ohangaron vohasidagi shevalarda uchraydigan fonetik, leksik va grammatik farqlarni xaritagga ko‘chirdi. O‘zbek dialektologiyasida birinchi bo‘lib o‘zbek qurama shevalarning 49 ta lingvistik xaritasini tuzdi. Bu kartalar negadir hozirgacha nashr qilinmadi<sup>26</sup>.

Kishilar o‘rtasida bevosita aloqa vazifasini bajaruvchi til tovush yoki tovushlar kompleksi orqali o‘z ifodasini topadi. O‘zbek tilshunosi M.M.Mirtojiyev to‘g‘ri ta’kidlagandek: “Ma’lum tovush yoki tovushlar kom-pleksida ma’no yoki maqsadning ifoda topishi lug‘aviy birlik, lug‘at, lek-sika hisoblanadi. Shu leksikaning ma’lum grammatik qonuniyatlar asosida kommunikasiyaga kirishuvi nutq, ya’ni tildir. Bu o‘rinda tilning uch bos-qichdagi tarkibiy qismi haqida gap boradi: tilning material manbai – tovushlar; shu material manbaini o‘z vositasida tashishi – leksika, lug‘at; o‘sha leksikaning kishilar muloqatga kirishuvi uchun o‘zaro kommunikativ aloqada bo‘lish qonuniyati – grammatika... Tovush tilni namoyon etuvchi materialdir”<sup>27</sup>. Shu boisdan ham tilning fonetik jabhasiga qiziqish va bu borada amalga oshirilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy tadqiqotlar o‘zining uzoq tarixiga ega.

---

<sup>26</sup> Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 4.

<sup>27</sup> Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 5.

Praga tilshunoslik to‘garagining “Tezis”larida tilning tovush jabha-siga xos tadqiqotlar xususida so‘z yuritilib, lingvistik tadqiqotlarda so‘zlovchining maqsadini ro‘yobga chiqaruvchi akustik timsollarni birinchi, asosiy o‘ringa qo‘yish zarurligi ta’kidlanadi<sup>28</sup>.

Darhaqiqat, bildiriladigan har qanday fikrlarning ashyoviy qobi-g‘ini akustik birliklar tashkil etadi. Fikrning yaxlit ashyosi jumla (gap) hisoblansa, shu jumlaning ashyosini tovush va tovushlar yig‘indisidan iborat butunlik tashkil etadi. So‘z tarkibidagi tovush qobig‘i hududiy, hatto, individual shaxsiy farqlar bilan idrok etiladi. Bu hol ayrim hududiy tillarning o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

“Tezis”larda: “barcha tillarning fonetik-fonologik tasviri lingvistikaning muhim muammosidir”<sup>29</sup> kabi bildirilgan fikrlar o‘zbek shevashunosligi uchun ham taalluqli bo‘lib, shevalarimiz fonologik strukturasi hali qo‘l tegmagan jihatlarini yoritish kun tartibiga qo‘yilishi muqarrardir.

Har qanday fanning tadrijiy – evolyusion tarzda rivojlanishi yangilik emas. Sharqda turkologiya, ayniqsa, dialektologiyaga XI asrdayoq Mahmud Qoshg‘ariy<sup>30</sup>, keyinchalik, Alisher Navoiy<sup>31</sup> tomonidan tamal toshi qo‘yilgan bo‘lsa, hozirda ham biz uchun ularning ilmiy qarashlari o‘zbek tilshunosligining mayog‘i sifatida qo‘llanma hisoblanadi.

Turkiy tillarning ilmiy o‘rganilishi o‘zbek tilshunosligi, xususan, o‘zbek dialektologiyasi sohasining rivoj topishida muhim o‘ringa ega. Bu borada professor N.A.Baskakov<sup>32</sup> va boshqa ko‘plab turkolog olimlarning ilmiy-nazariy konsepsiyalari turkologiya va o‘zbek shevashunosligi taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega.

Ma’lumki, o‘zbek dialektlari arealini o‘rganish sohasida professor E. D. Polivanov salmoqli nazariy va amaliy ishlarni amalga oshirdi va o‘zbek shevalarini birinchilardan bo‘lib tasnif qildi<sup>33</sup>.

Professor K. K. Yudaxin<sup>34</sup> o‘zbek shevalari genezisida juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan tillar interferensiyasiga, xususan, o‘zbek-uyg‘ur va qirg‘iz-

<sup>28</sup> Тезисы Пражского лингвистического кружка. В книг. Звегенцев В.А. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях. Часть II. - М.: Просвещение, 1965. С. 126.

<sup>29</sup> Тезисы Пражского лингвистического кружка. – С. 127.

<sup>30</sup> Қошғарий М. Девону лугат-ит турк. (Тарж. ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов). – Тошкент, 1960-1963.

<sup>31</sup> А. Навоий. Муҳокамат-ул лугатайн. Тўла асарлар тўплами. 16-т. – Тошкент, 1991.

<sup>32</sup> Баскаков Н.А. Тюркские языки народов Средней Азии и Казахстана // Народы Ср. Азии и Казахстана. – М., 1962; К вопросу о классификации тюркских языков//Изв. АН СССР. XI Вып. 2. –М., 1952. –С. 121-135.

<sup>33</sup> Поливанов Е.Д. Материалы по грамматике узбекского языка. 1. Введение. – Ташкент: Узгосиздат, 1935; Узбекская диалектология и узбекский литературный язык (к современной стад узбекского языкового строительства). Ташкент, 1933. – 45 с.

<sup>34</sup> Юдахин К.К. Узбекско-уйгурские языковые связи // Изв. АН КазССР. – № 86. Серия уйгуро-дунганской культуры. Вып. I. – Алма-Ата, 1950. – С. 28-30; Ўзбек ва уйгур халқлари тилларидаги яқинлик // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1958. – №1. – С. 31-35. Водил қишлоғининг лаҳжаси ҳақида бир неча сўз // Труды

o‘zbek-tojik tillari orasidagi o‘zaro munosabatlar masalasini chuqur o‘rganishga alohida e‘tibor qaratdi. Uning eski turkiy cho‘ziqlik va qadimgi morfologik shakllarni o‘zida saqlagan Qorabuloq, Vodil, Laylak shevalariga, Chig‘atoy tili tovush tizimini o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator asarlari maydonga keldi.

Professor A.K.Borovkovning ilmiy ishlarida o‘zbek-tojik tillari-ning o‘zaro munosabati, o‘zbek shevalarining tasnifi va tavsifi, o‘zbek dialektlari fonetikasiga alohida e‘tibor qaratilgan<sup>35</sup>.

V. V. Reshetov o‘zbek shevalari fonetikasi, transkripsiyasi, o‘zbek milliy tilining dialektal asosi va shu kabi o‘zbek shevashunosligining bir qator muhim masalalarini oydinlashtirdi. U Respublikamizning Toshkent, Marg‘ilon, Namangan kabi bir necha yirik shaharlari shevalarini sinchi-kovlik bilan o‘rgandi. Ilmiy izlanishlari natijasida hozirgi o‘zbek adabiy tiliga asos bo‘lgan Toshkent va Farg‘ona va boshqa o‘zbek shevalarning adabiy tilga bo‘lgan munosabati, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosladi. Olim faqat shahar shevalarini o‘rganish bilan cheklanmay, qipchoq shevalarining o‘ziga xos xususiyatlarini ham batafsil o‘rgandi. U Toshkent viloyatidagi qurama shevalarining lingvistik xususiyatlari tadqiqi moboy-nida to‘plangan materiallar asosida qurama genezisining ilmiy asosini aniqlashga muvaffaq bo‘ldi va qurama shevalarining o‘ziga xos xususiyatlarini, ayniqsa, fonetik sathini atroflicha tasnifladi<sup>36</sup>.

Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullaev, YA.G‘ulomov, Sh.Afzalov, X.Donyorov, A.Y.Aliev, Q.Muhammadjonov, Y.Ibrohimov<sup>37</sup> kabi dialektolog olimla-rimiz o‘zbek shevalarining fonetikasi, leksikasi va grammatikasini o‘rganish borasida muvaffaqiyatli ish olib bordilar.

Shu o‘rinda aytish kerakki, o‘zbek shevalari, ularning fonetikasini o‘rganishda o‘zbek dialektologiyasining o‘z an‘analari, o‘ziga xos tamoyil va asoslari bor. O‘zbek shevalari fonetikasining ilmiy asosda o‘rganilishini E.D.Polivanov, G‘.O.YUnusov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetovlar boshlab bergan an‘ana va tendensiyalarni Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullaev, X. Donyorov,

---

САГУ. – Ташкент, 1957; Некоторые особенности Карабулакского говора // *Ўзбек диалектологиясидан материаллар*. – Тошкент, 1957. – С. 31-59.

<sup>35</sup> Боровков А.К. Вопросы классификации узбекских говоров // *Изв. АН УзССР*. – Ташкент, 1953. – № 5. – С. 58-74; Таджикско-узбекское двуязычие и вопрос о взаимовлиянии таджикского и узбекского языков // *Учен. зап. института востоковедения*. – № IV. – М., 1952. – С. 164-175; *Узбекский говоры Наманганской области*. – Ташкент, 1963.

<sup>36</sup> Решетов В. В. *Ўзбек шевалярининг классификацияси* // *Ўзбек тили ва адабиёти*. – 1966, – №1. – Б. 3-14; *Решетов В.В. К вопросу о термини “курама” и кураминцах*. – *Бюллетен АН Уз ССР*. – Ташкент, 1945. – №5; *Классификации узбекских говоров Ангренской долины*. – *Бюллетен АН Уз ССР*. – Ташкент, 1946. – №7;

<sup>37</sup> *Шабдурахманов Ш. Ўзбек шеваляри, улар ҳақида умумий маълумот* // *Ўзбек халқ шеваляри дугати*. – Ташкент, 1971; *Абдуллаев Ф.А. Фонетика Хорезмских говоров*. – Ташкент, 1967; Гулямов Я. Г. Морфология ташкентского говора. Автореф. дис. ... канд. фил. науки. – М., 1954; Афзалов Ш. *Ўзбек тилининг Паркент шеvasи*. *Ўзбек диалектологиясидан материаллар*. 1. – Тошкент, 1957; Донёров Х. *Восточно-кыпчакский (джекающие) говоры и их участие в развитии узбекского литературного языка*. Автореф. дисс. ...докт. фил. науки. – Ташкент, 1977; Алиев А.Ю. *Уйчинский говор узбекского языка*. Авто-реф. дисс. ...канд. фил. наук.

S.Ibrohimov, A.Ishaev, A.Aliev, N.Rajabov, Sh.Nosirov, S.Otamirzaeva, H.Uzoqov, S.Tulyakov va boshqa olimlar davom ettirdilar.

O‘zbek dialektologiyasi sohasida shevalar fonetikasiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarining ko‘lami ortib bordi. Jumladan, A. Ishaevning Mang‘it shevasi fonetikasiga bag‘ishlangan izlanishlarida<sup>38</sup> Mang‘it shevasining o‘ziga xos xususiyatlari, fonema va tovushlari, tovush o‘zgarish hodisalari va bo‘g‘inlari haqida batafsil ma’lumot berilgan.

F.Abdullaevning o‘zbek shevalari fonetikasiga bag‘ishlangan dialek-tologik izlanishlari<sup>39</sup> o‘zining salmog‘i, ilmiy qimmatini bilan ahamiyatli. Uning o‘zbek shevalari nutq tovushlari va ularning o‘zgarishlari, so‘z urg‘usi xususida chiqargan asosli ilmiy-nazariy fikrlari va xulosalari sheva fonetikasini o‘rganish borsida burilish yasadi.

S. Otamirzaevaning Namangan shevasi fonetikasiga bag‘ishlangan monografiyasida<sup>40</sup> Namangan shahar shevasining fonetik strukturasi eksperimental tahlillar asosida o‘rganilib, uning boshqa o‘zbek shevalaridan farqli, o‘zigagina xos belgilari aniqlangan.

Bulardan tashqari, A.Turg‘unovning o‘zbek tili Baliqchi guruh shevalarining fonetik strukturasi, H. Hamroevning o‘zbek tili Qashqadaryo shevalarining asosiy fonetik xususiyatlari, D.Abdullaevaning o‘zbek tili Oshoba shevasining fonetik xususiyatlari<sup>41</sup> mavzularidagi tadqiqotlarida ham o‘zbek shevalarining fonetik strukturasi, fonetik hodisalarga oid jarayonlar, fonetik qonuniyatlar dialektal tahlil qilingan.

Keyingi paytlarda o‘zbek dialektologiyasi o‘zbek tilshunosligining ancha mukammal tarmog‘i sifatida shakllangan bo‘lishiga qaramay, soha bo‘yicha amalga oshiriladigan ilmiy izlanishlar ko‘lami sustlashib ketdi.

Barcha o‘zbek shevalari va ularning lisoniy xususiyatlari lingvistik geografiya, areal tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlilga tortilgan deb bo‘lmaydi. Ayniqsa, O‘zbekistonning markaziy va aholisi zich yirik shaharlaridan uzoq joylashgan aholi shevalarini areal o‘rganilishi hali o‘z yakunini topmagan.

---

<sup>38</sup> Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990; Манғит шеvasида ассимиляция ва диссимиляция // Тил ва адабиёт масалалари, 1959. – №3. – Б. 52.; Манғит шеvasининг баъзи бир фонетик хусусиятлари. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. II. – Тошкент: Фан, 1961. – 465 б.

<sup>39</sup> Абдуллаев Ф. А. Фонетика. – Тошкент: Фан, 1967; Фонетика Хорезмских говоров. – Ташкент, 1967; Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961; Хоразм шевалари таснифи масаласи. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. II. – Тошкент: Фан, 1961.

<sup>40</sup> Отамирзаева С. Звуковой состав Наманганского говора узбекского языка. – Ташкент, 1963; Экспериментально-фонетическое исследование Наманганского говора узбекского языка. –Ташкент, 1974.

<sup>41</sup> Тургунов А. Фонетическая структура балыкчинской группы говоров узбекского языка: Автореф. дис. ...канд. фил. наук. – Ташкент, 1969; Хамраев Х. Основные фонетические особенности Кашкадаринских говоров узбекского языка. – Ташкент, 1973; Хамраев Х. Основные фонетические особенности Кашкадаринских говоров узбекского языка. – Ташкент, 1973; Абдуллаева Д. Ўзбек тили Ошоба шеvasининг фонетик хусусиятлари. Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1999.


Dialektal faktlarni o‘rganish xalqimiz milliy vakil-larning etnik, mental, ma’naviy va madaniy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Zero, til millatning bebaho qadriyati, Birinchi Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganidek: “tilda millat ruhi yashaydi”.

Aniqki, xalq shevalari adabiy tilining yozma yodgorliklariga nisbatan ham qadimiyroq tarixiy manbadir. Bizgacha etib kelgan yozma yodgorliklarda uchramaydigan til faktlari shevalarda saqlanib qolgan. Shuning uchun sheva materiallarini tadqiq etish tilning ontologik tabiatini ochib berish imkonini beradi.

O‘zbek shevalarini o‘rganishda shevalarga xos xususiyatlarni birgina tavsifiy jihatdan emas, balki aniq tarixiy-etimologik, turkiy va boshqa tillarning faktik elementlari asosida qiyosan tadqiq qilinishi va shu nuqtai nazaridan baholanishi ko‘plab tarixiy-lingvistik, dialektologik, lingvogeografik, arealogik va hozirgi adabiy tildagi nazariy va amaliy muammolarning echimini topishda juda katta yordam beradi.

## ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ НАМАНГАН ШЕВАЛАРИ 2-ШИМОЛИЙ ФАРҒОНА ДИАЛЕКТАЛ ЗОНАСИ ТАРКИБИГА КИРАДИ

ПРОФЕССОР АЗИЗ ЖҶРАЕВ ТАДҚИҚИГА АСОСАН 2-ШИМОЛИЙ ФАРҒОНА  
ДИАЛЕКТАЛ ЗОНАСИ ҚҶИИДАГИ СХЕМАТИК КҶРИНИШГА ЭҒА:



2 – диалектал зона тури (шимолий Фарғона шевалари); е – диалектал а зона участкаси (Олабуқа – Оқтом – Тўхтагул шевалари); 1 – диалектал зона тури (жануби-шарқий Фарғона шевалари); 3 – диалектал зона тури (жануби-ғарбий Фарғона шевалари); 4 – диалектал зона тури (Тошкент тип шевалар); д – диалектал а зона участкаси (Хўжад – Кўлоб – Қўрғонтепа шевалари).



# ИЗОГЛАССА (ЛИНИЯ)

Ўз ва ўзга тил лингвистик белгиларини лингвистик хариталарда ифодаланган ҳолатларни кўрсатувчи ва уларни боғловчи чизиқлар:

Изофонема – фонетик белги; изоморфема – морфологик белги; изогласса – лексик белги.

## БОҒЛИҚ ИЗОГЛОССАЛАР

**БИР ГЕНЕТИК УМУМИЙЛИККА ЭГА БЎЛГАН ТИЛЛАРДА РИВОЖЛАНАДИ ВА УЛАР ҚИЁСИЙ-ГЕНЕТИК ТАДҚИҚОТЛАР УСУЛИ ОРҚАЛИ АНИҚЛАНАДИ**

## КОНВЕРГЕНТ ИЗОГЛОССАЛАР

**УЗОҚ ДАВРЛАР БИР ХУДУДДА ЯҚИН АЛОҚАДА БЎЛИШ НАТИЖАСИДА АРЕАЛ УМУМИЙЛИКНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ АСОСИДА ҲОСИЛ БЎЛАДИ, БУНДАЙ ИЗОГЛОССАЛАР ТИПОЛОГИК ТАҲЛИЛ УСУЛЛАРИ АСОСИДА ЎРГАНИЛАДИ**

## ШИМОЛИЙ ФАРҒОНА ДИАЛЕКТАЛ АРЕАЛИ ТАДҚИҚОТЛАРИ:

### НАМАНГАН ШАҲАР ШЕВАСИНИ:

В. Наливкин ва М. Наливкина, Е.Д.Поливанов, А.К.Боровков, В.В.Решетов, Ғ.О.Юнусов, С.Отамирзаева, С.Туляков...

### ВИЛОЯТ ШЕВАЛАРИ

АРЕАЛИНИ: А.Ю.Алиев, (Уйчи тумани); О. Шарипов (Поп тумани шева морфологияси)

### УМУМИЙ ТАСНИФИ:

В. Наливкин ва М. Наливкина, Е.Д.Поливанов, А.К.Боровков, В.В.Решетов, Ғ.О.Юнусов

### ФОНЕТИКАСИ:

С.Отамирзаева;

### ЛЕКСИКАСИ:

А.Ю. Алиев;

### МОРФОЛОГИЯСИ:

С.Туляков.

Ҳ.Шарипов Янгиқўрғон туманининг айрим қишлоқ шевалари ҳақида қисман маълумотлар келтирган. ЖҒН ҳудуд шевалари лексикасига доир батафсил бўлмаган қисқа маълумотлар: А.Ю.Алиев, С. Туляков, О. Шарипов

**1. ҚИПЧОҚ ЛАҲЖАСИГА МАНСУБ ШЕВАЛАР  
ГУРУҲИДА:**

**А) “Й” ЛОВЧИЛАР: [ЙҮР] ЮР, [ЙЫЛЭН]  
ИЛОН, [ЙЪП] ИП, [ЙУМЭЛЭ] ДУМА-  
ЛАМОҚ, [ШӘЙДӘ] ШУ ЕРДА ВА Б.**

**Б) “Ж” ЛОВЧИЛАР: [ЖҮР] ЮР, [ЖӘҢӘ//  
ЖЭНГА] ЯНГА, [Ш(Ж)ҮЙТЬП] ШУНДАЙ  
ҚИЛИБ, [ЖЪ:ПКЭТТЬИ/ЖЪҒЪБКЭТТЬ/  
ШЪ:ПКЭТТЬ] ЧИҚИБ КЕТДИ ВА Б.**

**2. ҚАРЛУҚ ЛАҲЖАСИГА МАНСУБ ШЕВАЛАР  
ГУРУҲИДА:**

**[МАН] МЕН, [НИНЭЗЬН] ЯХШИ,  
ТУЗУК, [СЭРПӘ//СЭРПӘ]  
САРПО, СЕП, [А:ШЪ] АНА ШУ,  
[ШЭДӘ] ШУ ЕРДА, [ЙАҢА]  
ЯНГА, [МАБУ//МАБЪ] МАНА  
БУ ВА БОШҚАЛАР**

### 3. АРАЛАШ ШЕВАЛАРДА СЎЗЛАШУВЧИЛАР ГУРУҲИДА:

[МЭҶА//МЭҶӘ] МЕНГА,  
[НИНЭЗЪН//БИР ЧИРОЙЛИ] ЯХШИ,  
ТУЗУК, [БЎҒЧА//БӨХЧА//ТҮЙҮН] АЁЛЛАР  
НАРСА СОЛАДИГАН ТУГУН, [САРЬМСОҚ//  
СЭМСОҚ] САРИМСОҚПИЁЗ ВА БОШҚА  
БИР ҚАНЧА ШУ КАБИ КЎРИНИШЛАР  
БИЛАН ФАРҚЛАНИШИНИ  
КУЗАТИШИМИЗ МУМКИН

#### Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Решетов V.V., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
2. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
3. Enazarov T., Karimjonova V. va boshqalar. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.
4. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
5. Алиев А. Ю., Назаров К. Н. Ўзбек тилининг маҳаллий шевалари бўйича материал тўпловчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: 1976.
6. Арёальные исследования в языкознании – Л., 1983
7. Баскаков Н.А. Задачи составления тюркских арёальных исторических диалектологических атласов // Советская тюркология. 1982. Вып. 3. С. 3-9.
8. Бегалиев М. Д. Ўзбек тилининг Қорабулоқ шеvasи лексикаси. – Тошкент: Иқтисод – Молия, 2007.

9. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Тошкент: 1991.
10. Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. – Тошкент: Фан, 1963.
11. Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевадар лексикасининг қиёсий тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2005.
12. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиғи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
13. Решетов В.В. Ўзбек диалектларини монографик ўрганиш // ЎТА. 1960. 1-сон.
14. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1962.
15. Решетов В.В. О диалектной основе узбекского литературного языка // Вопросы языкознания. – Москва, 1955.
16. Решетов В.В. Ўзбек шевадарининг классификацияси // ЎТА, 1966.
17. Шоабдурахмонов Ш.Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевадар.
- Тошкент: Ўқитувчи, 1962.
18. Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент: Фан, 1981.
19. Жапаров Ш. Кыргыз диалектологияси. – Фрунзе, 1982. 289 с.

## **8-mavzu**

### **TILLARNING O‘ZARO TA‘SIRI VA O‘TISH ZONALARI HUDUDINING HOSIL BO‘LISH TAMOYILLARI**

#### **Reja:**

1. Bir-biriga geografik jihatdan yaqin bo‘lgan tillar chegarasi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. O‘tish maydonlarining hosil bo‘lishi va ularning mustaqil tillarga bo‘lgan ta‘sir doirasi.
3. Sheva, lahja va tillarning o‘zaro ta‘sir xususiyatlarining lingvogeografik tavsifi.

#### 4. O‘tish zonolari hududining hosil bo‘lish tamoyillari talqini.

**Tayanch tushunchalar:** bir-biriga geografik jihatdan yaqin bo‘lgan tillar, til va sheva chegarasi, o‘tish maydonlari, maydon hosil bo‘lishi, shevaning mustaqil tillarga bo‘lgan ta‘sir doirasi, lingvogeografik tavsif.

Shevashunosligimizning tarixi XI asarning mashhur tilshunosi Mahmud Koshg‘riyga borib taqaladi. Uning “Devonu lug‘atit turk” asari turkiy xalqlar shevalarining so‘zligini arab tilida izohlangan mukammal va bebaho boylikdir.

Garchi uzoq vaqtda tilimiz – shevalarimiz bo‘yicha chuqur ilmiy asoslarda tadqiqotlar olib borilmagan bo‘lsa-da, tilimiz ijtimoiy hayotdagi mavqeini saqlab qolganligi va kuchaytirganligi hech ham rad qila olmaydi.

XX asrning 20-80-yillarida, ya‘ni Sho‘ro davrida tilimizga yanada taraqqiy etish uchun katta huquqlar berilmagan bo‘lsa hamki, bir qancha yirik sharqshunos olimlarimizning harakatlari bilan ona tilimiz hamda uning asosiy manbasi bo‘lgan shevalarimiz ilmiy, amaliy asoslarda o‘ganildi.

Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo‘lgan ona tilimiz o‘zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo‘ldi. Bu Vatanimiz tarixida tom ma‘nodagi voqea edi. Istiqloq yillarida o‘zbek tilining amalda qo‘llanish doirasi nihoyatda kengaygaydi. Bugungi kunda uni ilmiy asosda o‘rganish va rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan nazariy va ommabop asarlar va kitoblar, o‘quv qo‘lanmalari, yangi-yangi lug‘atlar chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

XX asrning 60-70 yillarida o‘zbek dialektologiyasi sohasida yirik monografik asarlarning paydo bo‘lganligi endilikda shevalarimizni qiyosiy-tarixiy va tipologik tadqiqotning hozirgi zamon tilshunosligining aniq va izchil metodlari bilan, til hodisalarining tarqalish chegaralarini aniqlab beruvchi lingvistik geografiya va areal metod bilan ilmiy asosda tekshirish uchun juda katta ilmiy manba, nazariy asos ekanligi ayni haqiqat. Bundan yarim asr avval amalga oshirilgan xalqning asl tili – shevalarning mukammal o‘rganishga kirishilganligi va ayrim shevalarning muhtasar o‘rganilganligi o‘zbek tilshunosligi fanining bugunida o‘zining qimmatli o‘rniga, ahamiyatiga ega ekanligini ko‘rsatib turibdi. O‘sha davrlarda ham o‘zbek xalq shevalari atlasini yaratish masalasini galdagi vazifa qilib kun tartibiga qo‘yilgan edi. Lingvistik geografiya faqat til tarixi va dialektologiya uchungina ahamiyat kasb etib qolmasdan, u xalq tarixi uchun ham juda muhim, chunki lingvistik geografiya muhim tarixiy manba hisoblanadi.

Fan tarixining XX asr 60-70 yillaridan so‘ng o‘zbek shevashunosligi ham, o‘zbek lingvogeografiyasida ham areologik tadqiqotlar, dialektologik ilmiy ekspeditsiyalar, xaritalashtirish ishlari o‘z-o‘zidan to‘xtab qoldi.

Mustaqillik sharofati bilan o‘zbek shevalarini ilmiy asosda, areologik nuqtai nazardan o‘rganish yana qayta jonlana boshladi.

Lingvistik geografiya metodi bilan tilning istalgan aspektini fonetika, (fonologiya), morfologiyag sintaksis, leksika, stilistika kabi aspektlarini tavsif etish mumkin. Areal tilshunoslikning lingvistik geografiya metodlari bilan yaratiladigan sheva lingvoxaritalarida tilning hamma hodisasi o‘z aksini to‘la topa olmasligi mumkin. Davr esa mukammal lingvistik xaritalar yaratilishini, ular asriy bebaho ma‘naviy qadriyatimiz bo‘lgan tilimizning boshlang‘ich va mustahkam poydevori bo‘lgan shevalarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari haqida batafsil ma‘lumotlar bera oladigan darajada ishlab chiqilishini talab etmoqda. Bugungi takomillashgan axborot texnologiyalari va mukammal texnik jihozlarga ega sharoitlarda bunday ishlarning amalga oshirish imkoniyatlari to‘liq mavjud.

Mamlakatimizda mustaqillik tufayli fan, madaniyat, ta‘lim-tarbiya, texnika, iqtisodiyot, siyosat sohalarida juda katta ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi va bundan keyin ham ular davom etaveradi.

Til ijtimoiy hodisa bo‘lganligi uchun adabiy tilimizda ham, shevalarimizda ham jamiyat taraqqiyoti bilan birga ko‘plab lisoniy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.

Hozirgi o‘zbek tilshunosligida ro‘y berayotgan ijobiy tamoyillar mahalliy til – shevalarga tegishli o‘zaro farqlarga oid ma‘lumotlarni yig‘ish, ularni qayd etish hamda qiyosiy-tarixiy va lingovogeografik metodlar asosida tavsiflash borasidagi dialektologik izlanishlarning butun taraqqiyoti davomidan shu kunga qadar erishilgan barcha ishlarni nazariy jihatdan idrok qilish muammosi kun tartibiga qo‘yilmoqda.

Bugungi kundagi o‘zbek shevashunosligi, areal tilshunoslik muammolarini tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, unda ayrim shevalar va sheva guruhlari tizimini o‘rganish bilan cheklanilgan. O‘zbek sheva-shunosligada yirik-yirik hududdagi shevalarni tavsifiy, qiyosiy-tarixiy va lingovogeografik jihatdan o‘rganib monografik planda tadqiq etish ehtiyoji sezilmokda.

Dialektal xususiyatlar, shevalarning o‘zaro aralashuvi, adabiy til, matbuot va ma‘rifiy-madaniy muassasalarning ta‘siri natijasida yildan yilga sheva unsurlari kamayib, ular orasidagi farqlar qisqarib, asta-sekin adabiy tilga yaqinlashish, singib borish jarayoni tezlashmoqda. O‘z-o‘zidan bu hol dialektologik materiallarning asta-sekii kamaya borishiga olib kelmoqda. Bu xalqning milliy madaniyati va o‘ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo‘lmish o‘zbek tilini rivojlantirish – boyitish manbalaridan biri va eng muhimi, o‘zbek jonli tili materiallarini, ayniqsa, adabiy tilda uchramaydigan so‘zlarni yig‘ib, saqlab qolish zaruriyati, ularni ham adabiy til mulkiga aylantirilishi bugungi kun uchun dolzarbdir.

Areal tilshunoslik fani hech qachon shevashunoslik va lingvistik geografiya ayro holda, alohidalik asosida ish ko'ra olmaydi. Shevashunoslik va lingvistik geografiya areologiyani tashkil etadi. Shu ikki fan sohasining materiallari asosida ish tashkil qiladi.

Dialektologiya – shevashunoslik, asosan, dala sharoitida ish ko'radi. Lingvogeografiya dialektologiyaga qaraganda ancha aniq – konkret xususiyatga ega. Chunki lingvogeografiya materiallari bilan laboratoriyada va kabinetda shug'ullaniladi. Lingvistik geografiya dialektologiyadan o'sib chiqqandir. Jonli dialektlar qanchalik darajada mavjud bo'lsa, lingvogeografiya dialektologiya bilan shunchalik bog'liq bo'ladi.

Dialektlar o'z xususiyatlarini yo'qotib, adabiy tilga singib ketganidan keyin dialektologiya dala sharoitida ish ko'rish holatidan mahrum bo'ladi va uning o'rmini lingvogeografik tadqiqot egallaydi.

Dialektning lingvogeografik holati uning tashqi ko'rinishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, til xususiyatining turli aspektlari bilan belgilanadi.

Lingvogeografiya bilan dialektologiya makon va zamon omillariga turlicha munosabatda bo'lsa-da, makon omili lingvogeografiyada ham dialektologiyada ham bir xil ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, hududiy omil lingvogeografiyaning asosini tashkil etadi. Chunki, lingvogeografiya keng hudud – maydonga ega bo'lishi va ayni paytda ko'plab fakt – materiallarni qamrab olishi, umumlashtirish hajmining beqiyosligi bilan tasviriy va tahliliy xususiyatga ega bo'lgan dialektologiyadan ajralib turadi.

Lingvistik geografiya umumiy tilshunoslikning bir aspekti sifatida areal-tipologik metod orqali tillar tipologiyasini o'rganish bilan ham, areal tadqiqot metodi bilan ham ish ko'radi. Lingvogeografiyada dialektlar va shevalar chegarasi butunicha aniqlanadi, ayrim fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarning joylashish o'rni belgilanadi hamda tilning dialektal bo'linishi kartinasi va dialektal strukturasi aniqlab chiqiladi.

Dialektologiyaning tekshirish ob'ekti jonli dialektal nutq, dialektal lug'atlar, ilmiy asarlar, qaysi davrga yoki qaysi territoriyaga oidligidan qat'i nazar, umuman dialektal tekstlar tadqiqotidan iborat bo'lsa, lingvistik geografiya lingvistik atlaslar, dialektal lug'atlar, ilmiy tadqiqotlar va ma'lum territoriyagagina oid dialektal tekstlar bilan ish ko'radi.

Dialektologiyada og'zaki nutqni transkripsiyada yozib olish, dialektal tekstlarni izohlash haqida ma'lum dialektal xususiyatlarni o'rganish, dialektal lug'atlar, monografiyalar va dialektal atlaslar tuzish ishi bajariladi. Dialektal atlaslar tuzilishi dialektologiyadan lingvistik geografiyaga o'tish davri hisoblanadi.

Shu bilan birga, bu davr o‘zining naza-riy ahamiyatiga ko‘ra lingvistik geografiya taraqqiyotining dastlabki jarayonidir.

Lingvogeografik tekshirishning asosiy davri tuzilgan atlaslar va boshqa lingvogeografik manbalar ustida olib boriladigan tadqiqot davridir. Dialektologiya tadqiqotida to‘liq til materialiga, to‘liq tekst namunalariga ega bo‘lsa, lingvogeografiya esa, anketalashtirilgan kichik til faktlarigagina tayanadi xolos.

Ma‘lumki, dialektal xususiyatlar asta-sekin iste‘moldan chiqib yo‘qolib ketadi. Ular haqidagi ma‘lumotlar esa, lingvistik atlaslar va yozib olingan teket namunalarida saqlanib qoladi. Demak, yo‘qolib borayotgan lingvistik xususiyatlarni yozib olish dialektologlarning muhim vazifasidir.

Areal tilshunoslik ham, lingvistik geografiya ham quyidagi tushuncha va terminlar bilan ish ko‘radi:

- |                         |                              |
|-------------------------|------------------------------|
| 1. Lingvistik atlaslar. | 7. Innovatsiya markazi.      |
| 2. Mos hodisalar.       | 8. Irradiatsiya.             |
| 3. Areallar.            | 9. Lingvogeografik kartalar. |
| 4. Izoglossalar.        | 10. Kartalashtirish va       |
| 5. Til lanshafti.       | boshqalar.                   |
| 6. Aralash zonalar.     |                              |

Demak, dialektologiya – shevashunoslikda:

- dialektologiya – shevashunoslik, asosan, dala sharoitida, lingvistik ekepeditsiyalar orqali ish ko‘radi;
- milliy tilning asosini tashkil etuvchi dialektlarning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari o‘rganiladi;
- shevalar bo‘yicha lingvistik tushuncha va tasavvurlar xosil qilinadi;
- shevalarni o‘rganish metodlari va sheva vakillaridan ma‘lumotlar olish, ularni to‘plash yo‘l-yo‘riqlari bilan shug‘ullaniladi;
- adabiy til va dialekt munosabatlari to‘g‘risida tushuncha xosil qilinadi.

Lingvistik geografiyada:

- lingvogeografiya materiallar bilan laboratoriyada va kabinetda shug‘ullaniladi;
- til hodisalarining tarqalish chegaralari, joylashish o‘rni va tilning dialektal bo‘linishi o‘rganiladi;
- areal-tipologik metod orqali tillar tipologiyasi aniqlaniladi;
- areal tadqiqot metodi bilan ham ish ko‘riladi;
- dialektlar va shevalar butunicha aniqlanib tekshiriladi;
- hududiy (regional) va ma‘lum bir, ayrim olingan kenglik, maydonlar (zonalar) dialektologik atlaslari tuzish ishlarini amalga oshiriladi.

Areal tilshunoslikda:



- mustaqil holda dialektologik va lingovogeografik asoslar orqali til maydon va kengliklari o'rganiladi:

- tilda turli omillar sababli paydo bo'lgan lingvistik hodisalar – izoglassa chiziqlarini haritalashtirish, til lanshaftlarini belgilash vazifalari amalga oshiriladi;

- bog'liq va konvergent izoglassalar til faktlari asosida zamon va makonga bog'liq holda o'rganiladi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. Решетов V.V., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

2. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.

3. Enazarov T., Karimjonova V. va boshqalar. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.

4. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.

5. Алиев А. Ю., Назаров К. Н. Ўзбек тилининг маҳаллий шевалари бўйича материал тўпловчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: 1976.

6. Ареальные исследования в языкознании – Л., 1983

7. Баскаков Н.А. Задачи составления тюркских ареальных исторических диалектологических атласов // Советская тюркология. 1982. Вып. 3. С. 3-9.

8. Бегалиев М. Д. Ўзбек тилининг Қорабулоқ шеvasи лексикаси. – Тошкент: Иқтисод – Молия, 2007.

9. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Тошкент: 1991.

10. Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. – Тошкент: Фан, 1963.

11. Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2005.

12. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

13. Решетов В.В. Ўзбек диалектларини монографик ўрганиш // ЎТА. 1960. 1-сон.

14. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1962.

15. Решетов В.В. О диалектной основе узбекского литературного языка // Вопросы языкознания. – Москва, 1955.

16. Решетов В.В. Ўзбек шеваларининг классификацияси // ЎТА, 1966.

17. Шоабдурахмонов Ш.Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари.  
– Тошкент: Ўқитувчи, 1962.

18. Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент: Фан, 1981.

### **9-mavzu**

## **AREAL LINGVISTIKADA XARITALASHTIRISH MUAMMOSI**

### **Reja:**

1. Atlas xaritalar asosida maʼlum sheva, lahja va tilning tarqalish koʻlamini oʻrganish.

2. Uning qoʻshni tillar bilan yaqinlik darajasi.

3. Areal lingvistik tadqiqotlarda xaritalashtirishda izoglassa, izofonema, izomorfema, izoleksema kabi terminlarning roli masalasi.

4. Hududiy jamoalarning dialektlari bilan bogʻligining muhim muammolari.

Lingvogeografik tekshirishning asosiy davri tuzilgan atlaslar va boshqa lingvogeografik manbalar ustida olib boriladigan tadqiqot davridir. Dialektologiya tadqiqotida toʻliq til materialiga, toʻliq tekst namunalariga ega boʻlsa, lingvogeografiya esa, anketalashtirilgan kichik til faktlarigagina tayanadi xolos.

Maʼlumki, dialektal xususiyatlar asta-sekin isteʼmoldan chiqib yoʻqolib ketadi. Ular haqidagi maʼlumotlar esa, lingvistik atlaslar va yozib olingan teket namunalarida saqlanib qoladi. Demak, yoʻqolib borayotgan lingvistik xususiyatlarni yozib olish dialektologlarning muhim vazifasidir.

Areal tilshunoslik ham, lingvistik geografiya ham quyidagi tushuncha va terminlar bilan ish koʻradi:

1. Lingvistik atlaslar.

2. Mos hodisalar.

3. Areallar.

4. Izoglossalar.

5. Til lanshafti.

6. Aralash zonalar.

7. Innovatsiya markazi.

8. Irradiatsiya.

9. Lingvogeografik kartalar.

10. Kartalashtirish va  
boshqalar.

Demak, lingvistik geografiyada:

- lingvogeografiya materiallar bilan laboratoriyada va kabinetda shugʻullaniladi;
- til hodisalarining tarqalish chegaralari, joylashish oʻrni va tilning dialektal boʻlinishi oʻrganiladi;
- areal-tipologik metod orqali tillar tipologiyasi aniqlaniladi;
- areal tadqiqot metodi bilan ham ish koʻriladi;
- dialektlar va shevalar butunicha aniqlanib tekshiriladi;
- hududiy (regional) va maʼlum bir, ayrim olingan kenglik, maydonlar (zonalar) dialektologik atlaslari tuzish ishlarini amalga oshiriladi.

Analiz va sintez, qiyosiy va boshqa koʻplab metodlarga asosan, “Areal tilshunoslik”da:

- mustaqil holda dialektologik va lingvogeografik asoslar orqali til maydon va kengliklari oʻrganiladi:
- tilda turli omillar sababli paydo boʻlgan lingvistik hodisalar – izoglassa chiziqlarini haritalashtirish, til lanshaftlarini belgilash vazifalari amalga oshiriladi;
- bogʻliq va konvergent izoglassalar til faktlari asosida zamon va makonga bogʻliq holda oʻrganiladi.

Oʻzbek xalq shevalari rang-barang xususiyatlarni oʻzida ifoda etadi. Ularning xaritalardagi koʻrinishi til oʻrganuvchilar uchun tilshunoslik va dialektologik qonuniyatlarni tushuntirishda juda qoʻl keladi. Lingvistik xaritalarda koʻrsatilgan dialektal xususiyatlar va ularning tarqalishi tilshunoslarga ayrim til hodisalarining tarixiy taraqqiyoti, oʻzbek milliy tilining shakllanish jarayonlari, adabiy til takomili kabi talay masalalarni yanada chuqurroq va mukammalroq oʻrganish imkonini beradi.

Lingvistik hodisalarning muayyan kenglikda tarqalishi va tillararo (dialektlararo) munosabatlarni lingvistik geografiya metodlari asosida oʻrganuvchi, asosiy tamoyillari til xususiyatlarining hududiy boʻlinishini tavsiflash va izoglassalarni talqin qilish, dialektlar, tillar va areal jamoalar (til ittifoqlari) oʻrtasida oʻzaro taʼsir maydonlarini (areal-larini) aniqlash boʻlgan areal lingvistika sohasida ham bugungi oʻzbek tilshunosligida bajariladigan vazifalar talaygina.

Oʻzbek tilini areal nuqtai nazardan oʻrganishda A.Joʻraev<sup>42</sup>, Q.Muhammadjonov<sup>43</sup> singari olimlar samarali mehnat qildilar. Ayniqsa, bu sohada oʻzbek

---

<sup>42</sup> Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991.

<sup>43</sup> Муҳаммаджонов Қ. Ареальное исследование узбекских говоров южного Казгистана. Автореф. дисс. ...докт. фил. наук. – Ташкент, 1988; Жанубий Қозғистондаги ўзбек шевалари. Тошкент: Фан, 1981.

tilini areal o'rganilishining nazariy asoslarini batafsil yoritib bergan professor A.B.Jo'raev xizmatlari alohida e'tiborga loyiq.

Zahmatkash o'zbek tilshunosi, ona tilimiz fidoyisi, til ilmi targ'i-botchisi Abdulhamid Nurmonov o'zining "O'zbek dialektologiyasining shakllanishi va rivojlanishi" nomli maqolasida "o'zbek mahalliy shevalarini o'rganishda "Chig'atoy gurungi" olg'a surgan g'oya katta xizmat qildi. Bunga ko'ra "tilimizning adabiyligi arabiylikida emas, o'zidadir, shuni tirguzmak", "tilimiz qoidalarini tatarcha yoxud usmonlicha emas, tilimizning o'zidan olmoq" kerak edi. Shuning uchun "xalq og'zida yurgan so'zlarni, xalq adabiyoti bo'lg'on ertaklar, maqollar yig'ib tekshirmak lozim" degan qarorga keladi. Natijada jonli xalq tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bel bog'lanadi" deb ta'kidlagan edi<sup>44</sup>. Olim o'zbek shevashunosligi taraqqiyoti uchun munosib ulush qo'shgan fan fidoyilari va ularning asarlari haqidagi fikrlari yakunida: "o'zbek dialektologiyasining keng front bo'ylab ravnaq topishi o'zbek tilini lingvistik xaritalashtirish imkoniyatini yaratdi. Shuningdek, lingvogeografik va areal tadqiqotlar olib borishga qulay sharoit tug'dirdi. A.Shermatovning lingvogeografiyaga, A.B.Jo'raevning areal lingvistikaga doir tadqiqotlarining dunyoga kelishi o'zbek til-shunosligining katta yutug'i" ekanligini ko'rsatib o'tgan edi<sup>45</sup>.

Darhaqiqat, A.B.Jo'raevning samarali ilmiy izlanishlari o'zbek areal lingvistikasi sohasida amalga oshirilgan yagona ish sifatida ahamiyatli ekanligini e'tirof etish lozim.

Aslida, o'zbek areal lingvistik tadqiqotlarining nazariy asoslari Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ot-it turk", Alisher Navoiyning "Muhokamat-ul lug'atayn" asarlari bilan birgalikda maydonga kelgan.

O'zbek shevalarini areal lingvistik metodlari asosida o'rganish professor A.K.Borovkovning Farg'ona vodiysi shevalaridan materiallar to'plashdan boshlangan. Lekin o'sha vaqtlarda respublikada dialektologik ishlarni birlashtiruvchi yagona markazning yo'qligi bu materiallarni ishlab chiqish va xaritalarga ko'chirish imkonini bermadi. Oradan ma'lum vaqt o'tgandan keyin, o'zbek shevalari xususiyatlarini xaritalashtirish va areallarini belgilash ishi yana kun tartibiga qo'yildi.

E.D.Polivanov, G'.O.Yunusov, I.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov kabi tilshunoslar o'zbek areal tilshunosligi sohasini ilmiy

---

<sup>44</sup> Нурмонов А. Танланган асарлар. – Тошкент: Akademnashr, 2-жилд, 2012. – Б. 425.

<sup>45</sup> Нурмонов А. Танланган асарлар. – Тошкент: Akademnashr, 2-жилд, 2012. – Б.426.

asarlari, asosli manba – materiallar bilan boyitib, uning rivojlanishiga, takomillashishiga munosib hissa qo‘shdilar.

O‘zbek dialektlari arealini xaritalashtirishda professor V.V.Reshe-tovning xizmatlarini alohida e‘tirof etish kerak. U Toshkent viloyatining Angren hududida dialektologik tadqiqotlar olib bordi va Ohangaron vohasidagi shevalarda uchraydigan fonetik, leksik va grammatik farqlarni xaritagga ko‘chirdi. O‘zbek dialektologiyasida birinchi bo‘lib o‘zbek qurama shevalarning 49 ta lingvistik xaritasini tuzdi. Bu kartalar negadir hozirgacha nashr qilinmadi<sup>46</sup>.

Kishilar o‘rtasida bevosita aloqa vazifasini bajaruvchi til tovush yoki tovushlar kompleksi orqali o‘z ifodasini topadi. O‘zbek tilshunosi M.M.Mirtojiev to‘g‘ri ta’kidlagandek: “Ma’lum tovush yoki tovushlar kompleksida ma’no yoki maqsadning ifoda topishi lug‘aviy birlik, lug‘at, lek-sika hisoblanadi. Shu leksikaning ma’lum grammatik qonuniyatlar asosida kommunikasiyaga kirishuvi nutq, ya’ni tildir. Bu o‘rinda tilning uch bos-qichdagi tarkibiy qismi haqida gap boradi: tilning material manbai – tovushlar; shu material manbaini o‘z vositasida tashishi – leksika, lug‘at; o‘sha leksikaning kishilar muloqatga kirishuvi uchun o‘zaro kommunikativ aloqada bo‘lish qonuniyati – grammatika... Tovush tilni namoyon etuvchi materialdir”<sup>47</sup>. Shu boisdan ham tilning fonetik jabhasiga qiziqish va bu borada amalga oshirilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy tadqiqotlar o‘zining uzoq tarixiga ega.

Praga tilshunoslik to‘garagining “Tezis”larida tilning tovush jabhasiga xos tadqiqotlar xususida so‘z yuritilib, lingvistik tadqiqotlarda so‘zlovchining maqsadini ro‘yobga chiqaruvchi akustik timsollarni birinchi, asosiy o‘ringa qo‘yish zarurligi ta’kidlanadi<sup>48</sup>.

Darhaqiqat, bildiriladigan har qanday fikrlarning ashyoviy qobi-g‘ini akustik birliklar tashkil etadi. Fikrning yaxlit ashyosi jumla (gap) hisoblansa, shu jumlaning ashyosini tovush va tovushlar yig‘indisidan iborat butunlik tashkil etadi. So‘z tarkibidagi tovush qobig‘i hududiy, hatto, individual shaxsiy farqlar bilan idrok etiladi. Bu hol ayrim hududiy tillarning o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

“Tezis”larda: “barcha tillarning fonetik-fonologik tasviri lingvis-

---

<sup>46</sup> Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 4.

<sup>47</sup> Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 5.

<sup>48</sup> Тезисы Пражского лингвистического кружка. В книге Звегенцев В.А. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях. Часть II.- М.: Просвещение, 1965. С. 126.

tikaning muhim muammosidir”<sup>49</sup> kabi bildirilgan fikrlar o‘zbek shevashunosligi uchun ham taalluqli bo‘lib, shevalarimiz fonologik strukturasiidagi hali qo‘l tegmagan jihatlarni yoritish kun tartibiga qo‘yilishi muqarrardir.

Har qanday fanning tadrijiy – evolyusion tarzda rivojlanishi yangilik emas. Sharqda turkologiya, ayniqsa, dialektologiyaga XI asrdayoq Mahmud Qoshg‘ariy<sup>50</sup>, keyinchalik, Alisher Navoiy tomonidan tamal toshi qo‘yilgan bo‘lsa, hozirda ham biz uchun ularning ilmiy qarashlari o‘zbek tilshunosligining mayog‘i sifatida qo‘llanma hisoblanadi<sup>51</sup>.

Turkiy tillarning ilmiy o‘rganilishi o‘zbek tilshunosligi, xususan, o‘zbek dialektologiyasi sohasining rivoj topishida muhim o‘ringa ega. Bu borada professor N.A.Baskakov<sup>52</sup> va boshqa ko‘plab turkolog olimlarning ilmiy-nazariy konsepsiyalari turkologiya va o‘zbek shevashunosligi taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega.

Ma‘lumki, o‘zbek dialektlari arealini o‘rganish sohasida professor E. D. Polivanov salmoqli nazariy va amaliy ishlarni amalga oshirdi va o‘zbek shevalarini birinchilardan bo‘lib tasnif qildi<sup>53</sup>.

Professor K. K. Yudaxin<sup>54</sup> o‘zbek shevalari genezisida juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan tillar interferensiyasiga, xususan, o‘zbek-uyg‘ur va qirg‘iz-o‘zbek-tojik tillari orasidagi o‘zaro munosabatlar masalasini chuqur o‘rganishga alohida e‘tibor qaratdi. Uning eski turkiy cho‘ziqlik va qadimgi morfologik shakllarni o‘zida saqlagan Qorabuloq, Vodil, Laylak shevalariga, Chig‘atoy tili tovush tizimini o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator asarlari maydonga keldi.

Professor A.K.Borovkovning ilmiy ishlarida o‘zbek-tojik tillarining o‘zaro munosabati, o‘zbek shevalarining tasnifi va tavsifi, o‘zbek dialektlari fonetikasiga alohida e‘tibor qaratilgan<sup>55</sup>.

---

<sup>49</sup> Тезисы Пражского лингвистического кружка. – С. 127.

<sup>50</sup> Қошғарий М. Девону луғат-ит турк. (Тарж. ва нашрга тайёрловчи С.Муталибов). – Тошкент, 1960-1963.

<sup>51</sup> А. Навоий. Муҳокамат-ул луғатайн. Тўла асарлар тўплами. 16-т. – Тошкент, 1991.

<sup>52</sup> Баскаков Н.А. Тюркские языки народов Средней Азии и Казахстана // Народы Ср. Азии и Казахстана. – М., 1962; К вопросу о классификации тюркских языков//Изв. АН СССР. XI Вып. 2. –М., 1952. –С. 121-135.

<sup>53</sup> Поливанов Е.Д. Материалы по грамматике узбекского языка. 1. Введение. – Ташкент: Узгосиздат, 1935; Узбекская диалектология и узбекский литературный язык (к современной стад узбекского языкового строительства). Ташкент, 1933. – 45 с.

<sup>54</sup> Юдахин К.К. Узбекско-уйгурское языковые связи // Изв. АН КазССР. – № 86. Серия уйгуро-дунганской культуры. Вып. I. – Алма-Ата, 1950. – С. 28-30; Ўзбек ва уйгур халқлари тилларидаги яқинлик // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1958. – №1. – С. 31-35. Водил қишлоғининг лаҳжаси ҳақида бир неча сўз // Труды САГУ. – Ташкент, 1957; Некоторые особенности Карабулакского говора // Ўзбек диалектологиясидан материаллар. – Тошкент, 1957. – С. 31-59.

<sup>55</sup> Боровков А.К. Вопросы классификации узбекских говоров // Изв. АН УзССР. – Ташкент, 1953. – № 5. – С. 58-74; Таджикско-узбекское двуязычие и вопрос о взаимовлиянии таджикского и узбекского языков // Учен. зап. института востоковедения. – № IV. – М., 1952. – С. 164-175; Узбекский говоры Наманганской области. – Ташкент, 1963.

V. V. Reshetov o'zbek shevalari fonetikasi, transkripsiyasi, o'zbek milliy tilining dialektal asosi va shu kabi o'zbek shevashunosligining bir qator muhim masalalarini oydinlashtirdi. U Respublikamizning Toshkent, Marg'ilon, Namangan kabi bir necha yirik shaharlari shevalarini sinchi-kovlik bilan o'rgandi. Ilmiy izlanishlari natijasida hozirgi o'zbek adabiy tiliga asos bo'lgan Toshkent va Farg'ona va boshqa o'zbek shevalarning adabiy tilga bo'lgan munosabati, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosladi. Olim faqat shahar shevalarini o'rganish bilan cheklanmay, qipchoq shevalarining o'ziga xos xususiyatlarini ham batafsil o'rgandi. U Toshkent viloyatidagi qurama shevalarining lingvistik xususiyatlari tadqiqi moboy-nida to'plangan materiallar asosida qurama genezisining ilmiy asosini aniqlashga muvaffaq bo'ldi va qurama shevalarining o'ziga xos xususiyatlarini, ayniqsa, fonetik sathini atroflicha tasnifladi<sup>56</sup>.

Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullaev, YA.G'ulomov, Sh.Afzalov, X.Donyorov, A.Y.Aliev, Q.Muhammadjonov, Y.Ibrohimov<sup>57</sup> kabi dialektolog olimlarimiz o'zbek shevalarining fonetikasi, leksikasi va grammatikasini o'rganish borasida muvaffaqiyatli ish olib bordilar.

Shu o'rinda aytish kerakki, o'zbek shevalari, ularning fonetikasini o'rganishda o'zbek dialektologiyasining o'z an'analari, o'ziga xos tamoyil va asoslari bor. O'zbek shevalari fonetikasining ilmiy asosda o'rganilishini E.D.Polivanov, G'O.Yunusov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetovlar boshlab bergan an'ana va tendensiyalarni Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullaev, X. Donyorov, S.Ibrohimov, A.Ishaev, A.Aliev, N.Rajabov, Sh.Nosirov, S.Otamirzaeva, H.Uzoqov, S.Tulyakov va boshqa olimlar davom ettirdilar.

O'zbek dialektologiyasi sohasida shevalar fonetikasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarining ko'lamini ortib bordi. Jumladan, A. Ishaevning Mang'it shevasi fonetikasiga bag'ishlangan izlanishlarida<sup>58</sup> Mang'it shevasining o'ziga xos xususiyatlari, fonema va tovushlari, tovush o'zgarish hodisalari va bo'g'inlari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

---

<sup>56</sup> Решетов В. В. Ўзбек шевалярининг классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1966, – №1. – Б. 3-14; Решетов В.В. К вопросу о термине “курама” и кураминцах. – Бюллетен АН Уз ССР. – Ташкент, 1945. – №5; Классификации узбекских говоров Ангренойской долины. – Бюллетен АН Уз ССР. – Ташкент, 1946. – №7;

<sup>57</sup> Шаабдурахманов Ш. Ўзбек шевалари, улар ҳақида умумий маълумот // Ўзбек халқ шевалар лугати. – Ташкент, 1971; Абдуллаев Ф.А. Фонетика Хорезмских говоров. – Ташкент, 1967; Гулямов Я. Г. Морфология ташкентского говора. Автореф. дис. ... канд. фил. науки. – М., 1954; Афзалов Ш. Ўзбек тилининг Паркент шеvasи. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 1. – Тошкент, 1957; Донёров Х. Восточно-кыпчакский (джекающие) говоры и их участие в развитии узбекского литературного языка. Автореф. дисс. ...докт. фил. науки. – Ташкент, 1977; Алиев А.Ю. Уйчинский говор узбекского языка. Авто-реф. дисс. ...канд. фил. наук.

<sup>58</sup> Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990; Манғит шеvasида ассимиляция ва диссимиляция // Тил ва адабиёт масалалари, 1959. – №3. – Б. 52.; Манғит шеvasининг баъзи бир фонетик хусусиятлари. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. II. – Тошкент: Фан, 1961. – 465 б.

F.Abdullaevning o‘zbek shevalari fonetikasiga bag‘ishlangan dialek-tologik izlanishlari<sup>60</sup> o‘zining salmog‘i, ilmiy qimmatini bilan ahamiyatli. Uning o‘zbek shevalari nutq tovushlari va ularning o‘zgarishlari, so‘z urg‘usi xususida chiqargan asosli ilmiy-nazariy fikrlari va xulosalari sheva fonetikasini o‘rganish borsida burilish yasadi.

S. Otamirzaevaning Namangan shevasi fonetikasiga bag‘ishlangan monografiyasida<sup>61</sup> Namangan shahar shevasining fonetik strukturasi eksperimental tahlillar asosida o‘rganilib, uning boshqa o‘zbek shevalaridan farqli, o‘zigagina xos belgilari aniqlangan.

Bulardan tashqari, A.Turg‘unovning o‘zbek tili Baliqchi guruh shevalarining fonetik strukturasi, H. Hamroevning o‘zbek tili Qashqadaryo shevalarining asosiy fonetik xususiyatlari, D.Abdullaevaning o‘zbek tili Oshoba shevasining fonetik xususiyatlari<sup>62</sup> mavzularidagi tadqiqotlarida ham o‘zbek shevalarining fonetik strukturasi, fonetik hodisalarga oid jarayonlar, fonetik qonuniyatlar dialektal tahlil qilingan.

Keyingi paytlarda o‘zbek dialektologiyasi o‘zbek tilshunosligining ancha mukammal tarmog‘i sifatida shakllangan bo‘lishiga qaramay, soha bo‘yicha amalga oshiriladigan ilmiy izlanishlar ko‘lami sustlashib ketdi.

Barcha o‘zbek shevalari va ularning lisoniy xususiyatlari lingvistik geografiya, areal tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlilga tortilgan deb bo‘lmaydi. Ayniqsa, O‘zbekistonning markaziy va aholisi zich yirik shaharlaridan uzoq joylashgan aholi shevalarini areal o‘rganilishi hali o‘z yakunini topmagan. Dialektal faktlarni o‘rganish xalqimiz milliy vakil-larning etnik, mental, ma’naviy va madaniy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Zero, til millatning bebaho qadriyati, Birinchi Prezi-dentimiz ta’kidlab o‘tganidek: “tilda millat ruhi yashaydi”.

Aniqki, xalq shevalari adabiy tilining yozma yodgorliklariga nisbatan ham qadimiyroq tarixiy manbadir. Bizgacha etib kelgan yozma yodgorliklarda uchramaydigan til faktlari shevalarda saqlanib qolgan. Shuning uchun sheva materiallarini tadqiq etish tilning ontologik tabiatini ochib berish imkonini beradi.

---

<sup>60</sup> Абдуллаев Ф. А. Фонетика. – Тошкент: Фан, 1967; Фонетика Хорезмских говоров. – Тошкент, 1967; Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961; Хоразм шевалари таснифи масаласи. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. II. – Тошкент: Фан, 1961.

<sup>61</sup> Отамирзаева С. Звуковой состав Наманганского говора узбекского языка. – Тошкент, 1963; Экспериментально-фонетическое исследование Наманганского говора узбекского языка. – Тошкент, 1974.

<sup>62</sup> Тургунов А. Фонетическая структура балыкчинской группы говоров узбекского языка: Автореф. дис. ...канд. фил. наук. – Тошкент, 1969; Хамраев Х. Основные фонетические особенности Кашкадаринских говоров узбекского языка. – Тошкент, 1973; Хамраев Х. Основные фонетические особенности Кашкадаринских говоров узбекского языка. – Тошкент, 1973; Абдуллаева Д. Ўзбек тили Ошоба шеvasининг фонетик хусусиятлари. Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1999.



O'zbek shevalarini o'rganishda shevalarga xos xususiyatlarni birgina tavsifiy jihatdan emas, balki aniq tarixiy-etimologik, turkiy va boshqa tillarning faktik elementlari asosida qiyosan tadqiq qilinishi va shu nuqtai nazaridan baholanishi ko'plab tarixiy-lingvistik, dialektologik, lingvogeografik, arealogik va hozirgi adabiy tildagi nazariy va amaliy muammolarning echimini topishda juda katta yordam beradi.

### Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент: Фан, 1981.
2. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
3. Enazarov T., Karimjonova V. va boshqalar. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.
4. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
5. Алиев А. Ю., Назаров К. Н. Ўзбек тилининг маҳаллий шевалари бўйича материал тўпловчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: 1976.
6. Арёальные исследования в языкознании – Л., 1983
7. Баскаков Н.А. Задачи составления тюркских арёальных исторических диалектологических атласов // Советская тюркология. 1982. Вып. 3. С. 3-9.
8. Бегалиев М. Д. Ўзбек тилининг Қорабулоқ шеvasи лексикаси. – Тошкент: Иқтисод – Молия, 2007.
9. Джураев А.Б. Теоретические основы арёального исследования узбекоязычного массива. – Тошкент: 1991.
10. Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. – Тошкент: Фан, 1963.
11. Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2005.
12. Ражабов Н. Ўзбек шевашуносилиги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
13. Решетов В.В. Ўзбек диалектларини монографик ўрганиш // ЎТА. 1960. 1-сон.
14. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1962.
15. Решетов В.В. О диалектной основе узбекского литературного языка // Вопросы языкознания. – Москва, 1955.
16. Решетов В.В. Ўзбек шеваларининг классификацияси // ЎТА, 1966.

17. Шоабдурахмонов Ш.Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари.  
– Тошкент: Ўқитувчи, 1962.

18. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси.  
– Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

## 10- mavzu

### IKKI TIL O‘TISH ZONALARINING TA‘SIRIDA ULARDAGI O‘ZGARISHLAR

#### Reja:

1. Tillamirig o‘tish zonolari.
2. Tebranish hududidagi tillarning fonetik belgilari. Undosh fonemalar va fonetik hodisalar talqini.
3. O‘zaro ta‘sir doirasidagi tillarning farq qiladigan ba‘zi xarakterli lug‘aviy xususiyatlari. Ikki til o‘tish zonalarida antonim, omonim, sinonim, ko‘p ma‘noli, eskirgan, tarixiy so‘zlar va neologizmlarning o‘ziga xosligi. Ikki til o‘tish zonalarida dialektal frazeologiya hamda ularning dialektlararo qo‘llanishi.
4. So‘z turkumlari va ularga xos xususiyatlar tavsifi. Sintaksis. Ikki til o‘tish zonalarida dialektal sintaksis masalalari.
5. Dialektal sintaksisda so‘z birikmasi va gaplardagi o‘ziga xosliklar.

Mustaqil O‘zbekistonimizda fan va madaniyatning taraqqiyoti adabiy til mavqeini kundan kunga oshirmoqda. Buning natijasida mahalliy til – shevalarning fonetik, leksik va grammatik tarkibida o‘zgarishlar, tora-yishlar sodir bo‘lmoqda. Shuning uchun dialekt va shevalarga xos fonetik-fonologik xususiyatlarni qayd qilish, barcha lingvistik tomonlarini chuqur tavsifiy-qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, mental tamoyillar asosida atroflicha o‘rganish, tadqiq qilish hozirgi zamon o‘zbek tili taraqqiyotini va shu til egasi bo‘lgan xalqlar tarixi, tilietnografiyasini o‘rganishda muhim nazariy va amaliy ma’lumotlar beradi. Zero, ...odamzod borki, avlodajdodi kimligini, nasl-nasabini, o‘zi tug‘ilib voyaga etgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanimizning tarixini bilishni istaydi<sup>63</sup>. Til har qanday millatning jonli, tirik tarixidir.

Shevalarni o‘rganish tilshunoslarga til yuragining qanday urishini o‘z quloqlari bilan eshitishga imkon beradi (G. Ostgov, K. Brutman), degan fikrni bildirgan olimlar juda ham haqlidirlar. Chunki shevashunos bevosita xalq orasida yurib, u bilan birga nafas olib, o‘z imkoniyati, iqtidori va kuch-qudratini ishga

---

<sup>63</sup> Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Мулоқот. – Тошкент, 1998. – № 5. – Б. 3.

solib,... xalq og‘zidan shevaga xos so‘zlarni yozib olib, unga sayqal berib, kelgusi avlodga qoldirishga harakat qiladi<sup>64</sup>.

Xalqning jonli tili – shevalarini o‘rganish, bir tilning o‘ziga xos boshqa tillarda uchramaydigan jihatlari yoki ularni bir-biri bilan tutashtiruvchi nuqtalarini topish tilning ontologik tabiatini ochib berishga yordam beradi. O‘zbek adabiy tili taraqqiyotida ichki omil sifatida belgilangan hamda uning takomillashishida alohida o‘rin tutuvchi o‘zbek shevalarning lisoniy xususiyatlarini ilmiy o‘rganish har qanday me‘yor-lashgan adabiy tilning barcha sathlaridagi nazariy va amaliy qonuni-yatlarini to‘laqonli aniqlash, ular haqidagi mukammal va aniq qoida, ta‘rif, xulosalar chiqarishda asosiy va muhim vazifalarni bajaradi. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek adabiy tilining taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan o‘zbek shevalari sistemasida janubi-g‘arbiy Namangan shevalarining tutgan o‘rnini lisoniy jarayonlar orqali belgilash hamda ular orqali asosli xulosa va to‘xtamlarga kelish mumkin.

Janubi-g‘arbiy Namangan shevalari o‘zbek shevalarining kichik bir bo‘lagi hisoblanadi. Sheva vakillari bir hududda yashashlariga qaramasdan, har bir shoxobcha o‘ziga xos fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarga ega. Sheva areali umumo‘zbek shevalarining fonetik, leksik, grammatik strukturasiidagi umumiy o‘xshashliklarga mos ko‘rinishlarga ega bo‘lsa-da, ulardan ayrim quyidagi fonetik-leksik xususiyatlari bilan farqlanadi:

1) qipchoq lahjasiga mansub shevalar guruhida: a) “y”lovchilar: [yʏr] yur, [yʏlɔn] ilon, [yʏp] ip, [yʏmɔlɔ] dumalamoq, [shəydə] shu erda va b.; b) “j” lovchilar: [jʏr] yur, [jəŋə//jəŋa] yanga, [shyytʏp] shunday qilib, [jʏ:pkettʏi//jʏgʏbkettʏ] chiqib ketdi va b.;

2) qarluq lahjasiga mansub shevalar guruhida: [man] men, [ninɔzn] yaxshi, tuzuk, [sɔrpə//sərpə] sarpo, sep, [a:shʏ] ana shu, [shedə] shu erda, [yaŋa] yanga, [maby//mabʏ] mana bu va b.;

3) aralash shevalarda so‘zlashuvchilar guruhida: [meŋa//məŋə] menga, [ninɔzn//bir chiroyli] yaxshi, tuzuk, [boʏgʏcha//bəxcha//tyyyŋn] ayollar narsa soladigan tugun, [sarmsɔq//sɔmsɔq] sarimsoqpiyoz va boshqa bir qancha shu kabi ko‘rinishlar bilan farqlanishini kuzatishimiz mumkin.

Shevalarining fonetik-fonologik tabiati so‘zlarda, grammatik shakl-larda jilolanadi. Muayyan sheva arealning boshqa shevalardan farqlaydigan lisoniy qirralari uning leksik qatlamida ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Janubi-g‘arbiy Namangan shevalari so‘z – terminlari va ular anglatgan ma‘nolar turfa, rang-

---

<sup>64</sup> Бердиалиев А., Мадвалиев А., Раҳмонқулов А. Таниқли шевашунос // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. №, 5. – Б. 112.

barang. Lekin ularning barchasi hali mukammalroq to‘planib, o‘rganilgani yo‘q. Shuni nazarda tutib, JG‘N shevalari leksik qatlamini fonetik-fonologik strukturasidagi belgilarga ko‘ra, quydagi guruhlarga ajratish mumkin:

I. Faqat shevaga xos so‘z va terminlar\*, qo‘shma so‘z va birikmalar.

1. Adabiy tilda uchramaydigan, faqat shevaga xos so‘z – terminlar:

[sh‘ydə] – qattiq tanali, masalan, makkajo‘xori, g‘o‘za, oq jo‘xori kabi o‘simliklar o‘rib olingandan so‘ng ildizi bilan er ustida qolgan poyasi.

Shevada [chəktmək] va [typchk] so‘zlari o‘zaro ma‘nodosh. [sh‘ydə] hech qachon yumshoqpoyali o‘simliklarga nisbatan qo‘llanmaydi. Biroq janubiy Qozog‘iston o‘zbek shevalarida [sh‘ydə] tikanli butoq ma‘nosida qo‘llanadi<sup>65</sup>. [chəktmək] va [typchk] – yumshoq poyali o‘simliklar (sholi, arpa, bug‘doy, kurmak, ajiriy kabi) o‘rib olingandan so‘ng ildizi bilan er ustida qolgan poyasi. [sh‘ydə] [chəktmək] va [typchk] so‘zlaridan anglatgan ma‘nosiga ko‘ra farqlanib, ularga sinonim bo‘la olmaydi.

[chəktmək] shevada omonim so‘zdir: a) yaroqsiz holga kelgan supurgi; b) baliq tutish qarmog‘i ipiga (ilmog‘idan 3-5 sm yuqoriga) o‘rnatiladigan metall parchasi; [bəchk‘] ertapishar ekinlardan so‘ng bo‘shagan maydonlarga hayvonlar uchun ozuqa sifatida sepib o‘stirilib, kech kuzgacha o‘rib olinadigan ekin nomi; [ɣvʏz] – sigir yangi tug‘gandan keyin ikki, uch kungacha sog‘ib olinib to‘kib yuboriladigan sut. Bu so‘z O‘zbekistonning barcha dialektal arealida, hatto Qozog‘iston Respublikasining o‘zbek shevalarida ham mavjud: [ɣvʏz] (Gurlan, Yangibozor), [ovʏz] (Hozarasp), [ɣv‘z] (Qovchin va Turkiston qipchoq shevalari), [ɔg‘zlɔq] (Qashqadaryo), [og‘iz] (Toshkent<sup>66</sup>) kabi; [vəssə] – imoratning uy to‘sinlari orasiga tashlanadigan taxta; [hɔvɔn] – sinchli uylarning ichki ustunlariga nisbatan diognal tarzda o‘rnatiladigan uzun yog‘och; [chərqɔɪ] – chinni va sopoldan ishlangan sayoz quyuq taomlar idishi; [dɔltɔ//to‘lto]– qaymoq qizdirilganda so‘ng hosil bo‘lgan saryog‘ quyqasi; [typkə] – ovloq joy, [jʏkʏm] – arazlashish; [ɔg‘‘l] – molxona, [chɣpɔɳ] – ko‘p, mo‘l; [qo‘g‘ɔ//qog‘a] (ko‘l va zovur ariqlarda o‘sadigan ko‘p yillik o‘simlik, janubi-g‘arbiy Namangan aholisi undan turli narsalarni bog‘ holatiga keltirish uchun bog‘lik sifatida foydalanadi. (Namangan shahar, CHortoq, Uychi kabi qarluq lahjalarida [lug‘//luq] deb nomlanadi); [sət‘l] – sirlangan, ikki tomonida ushlaydigan qulog‘i bor metall idish, (rus: kostryul); [so‘pltyryq] – yosh o‘g‘il bolalar do‘ppisining o‘rtasiga mayin yungli quyon yoki tulki terisidan bir parchasini tikib qo‘yish; [so‘pp] bosh

\**Адабий тилда учрамайдиган, шева таркибида қўлланувчи айрим ижтимоий-маиший соҳаларга, чорвачилик, деҳқончилик, хунармандчиликка оид лексик бирликларни термин деб қўлладик.*

<sup>65</sup> Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.177.

<sup>66</sup> Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990. –Б.12.

kiyim – shapkalarining tepa markaziga dumaloq holda o‘rnatiladigan momiq iplar yig‘indisi kabi.

2. Nomemasi adabiy tildagi so‘zlardan farq qilmasa-da, lekin shevada boshqa ma‘no anglatuvchi so‘zlar: [tr‘nkə] – metaldan ishlangan suyuq va quyuq ovqatlar uchun chuqur va sayoz idish turi; [chn] – chinni kosa; [o‘ra//o‘rə]– qishda sabzavot saqlovchi joy; [məllə] – paxta terish etagi, [quləq] – bir ariqdan ikkinchi bir ariqqa suv olinadigan joy; [sypə] – ariqdan suv olinadigan zinali joy; [vəh-vək] – omonim: hovliqma odam, hasharot turi.

## II. Fonetik qonuniyatlar asosida yuzaga kelgan leksik birliklar.

